



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

BADIIY TARJIMA VA TAHRIR

moduli uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: O‘zbek-ingliz tarjima
nazariyasi va amaliyoti**



**ALISHER
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Toshkent – 2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **U.Yo‘ldoshev** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchi: **Z.Teshaboyeva** – filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Samigova – filologiya fanlari doktori, dotsent O‘zDJTU

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
(2021-yil 29-dekabrda 7-sonli qarori)

MUNDARIJA

T/r	BO'LIMLAR	SAHIFA
I.	ISHCHI O'QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	16
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI	27
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI	48
V.	KEYSLAR BANKI	71
VI.	GLOSSARIY	73
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	80
VIII.	TAQRIZ	85

I. ISHCHI O‘QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qaror, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nasr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, badiiy tarjima sohasiga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, ularni amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda barcha fan sohalari kabi tarjimashunoslik sohasini ham keng rivojlantirish, tarjimonlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, oliy ta’lim muassasalarida tarjimani o‘qitish jarayoniga yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish ishlari sezilarli

darajada ortib bormoqda. Bu esa yurtimizda o'zbek tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan o'zbek tiliga turli uslubdagi adabiyotlarni tarjima ishlarini keng ko'lamda amalga oshirishga zamin yaratadi. Bu jarayonlarni keng sur'atda rivojlantirish uchun keyingi yillarda yurtimizda bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Bugungi globallashuv va integrallashuv jarayonida o'zbek adabiyoti namunalarini dunyoning turli tillariga tarjima qilish orqali o'zbek xalqining boy madaniy merosini, ilmiy-adabiy yutuqlarini jahonga tanitishda badiiy tarjima va uni amalga oshiradigan badiiy tarjimonlarni tayyorlash va ular amalga oshirgan tarjima ishlarini tahrir qilish orqali ularning sifatini yangi darajaga olib chiqish dolzarb masalalardan xisoblanadi.

“Badiiy tarjima va tahrir” moduli Oliy ta'lim muassasalarida badiiy tarjima va uning lingvistik aspektlari, shuningdek, badiiy tarjima va tahrir kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib boradigan professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi oldidagi davr talabiga mos ravishda tuzilgan kurs sifatida e'tirof etish mumkin. Tarjimashunoslik sohasida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar va yangilanishlar, shubhasiz, badiiy tarjimada amalga oshirilayotgan yangi qarashlarni oliy ta'limda ham joriy etishni taqozo etmoqda.

Badiiy tarjima o'zida lisoniy: fonetik, grammatik, leksik, stilistik, matn lingvistikasi hamda nolisoniy: madaniy, pragmatik, gender, kognitiv kabi xususiyatlarni, shuningdek badiiy uslub, badiiy janrlar, muallif uslubi, badiiy tasviriy vositlarni o'zida mujassam ettirgani bilan boshqa uslubdagi matnlardan farq qiladi. Bugungi kunda tarjimon tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida badiiy tarjimini talabalarga o'rgatish, bo'lajak badiiy tarjimonlarning kasbiy, lingvistik, ijodiy hamda ensiklopedik kompetentsiyalarini shakllantirish, badiiy tarjima uslublari va usullaridan samarali foydalanish metodlarini talabalarga o'rgatishni samarali tashkil etish uchun professor-o'qituvchilar badiiy tarjima va tahrir fanidan ta'lim jarayonida mazmunli foydalanishni to'laqonli yo'lga

qo'yish orqali bo'lajak tarjimonlarda badiiy tarjima kompetentsiyasini shakllantirish, badiiy tarjimani talabalarga o'rgatishda lingvistik va metodik asoslar negizida professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga badiiy tarjima jarayonida uchraydigan morfologik, sintaktik, leksik-semantik hamda stilistik muammolar va ularni bartaraf etish usullarini o'rgatishga alohida diqqat qaratish erishish mumkin.

Modulning maqsad va vazifalari

“Badiiy tarjima va tahrir” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida sohaga doir bilimlarni rivojlantirish, badiiy tarjima tahrir qilish usullari va tamoyillarini o'zlashtirish va shu orqali talabalarda badiiy matni tarjima qilish ko'nikmasini va badiiy tarjima va tahrir bo'yicha so'ngi yutuqlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talablari nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar ilmiy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali erishiladi. Badiiy tarjima va tahrir kursi malaka oshirish kursi tinglovchilarida yangicha ilmiy yondashuvlarni ta'lim sohasi va ilmiy tadqiqot uchun keng tadbiiq etishga ko'maklashish, ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini o'rgatishni ko'zda tutadi.

Ushbu modulning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs tinglovchilarini badiiy tarjima jaraynida talabalarda uchraydigan tarjima ga'lizliklari va xatolarini til sathlari bo'yicha ajratib olish va bu xatoliklarni bartaraf etish usullari bilan tanishtirish;
- professor-o'qituvchilarda OTMlarda tarjimashunoslikda matnni uslubiga ko'ra tanlanadigan tarjima uslublari va matndagi kichik leksik birliklar tarjimasida qo'llanadigan tarjima usullaridan badiiy tarjima yo'nalishining mutaxassislik fanlarida foydalanish ko'nikmasini qaror topdirish;
- badiiy tarjima jarayonida uchraydigan tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolarini talabalarda qanday qilib bartaraf etish usul va yo'llaridan samarali foydalanishni malakasini shakllantirishdan iborat.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka darajasiga qo‘yiladigan talablar

“Badiiy tarjima va tahrir” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilim**larga ega bo‘lishi kerak:

- tarjimaning fundamental tushunchalari borasida yetarli axborotga ega bo‘lish;
- badiiy tarjima va uni tahrir qilishning nazariy asoslarini o‘zlashtirish;
- tarjima uslublari va ularni badiiy matn tarjimasida qo‘llanishi borasida ma‘lumotga ega bo‘lish;
- tarjimaning lingvistik aspektlari borasida yetarlicha axborotga ega bo‘lish,
- ingliz va o‘zbek tillarining fonetik, morofologik, sintaktik, leksik, stilistik, matn sathlari bo‘yicha farqli va o‘xshash jihatlar farqlay olish.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi **ko‘nikmalarni** shakllantirishga xizmat qiladi:

- badiiy tarjimani tahrir qilishda tarjima uslublaridan samarali foydalanish;
- badiiy tarjimada qo‘llangan tarjima usullarini tahlil qila olish;
- talabalar duch keladigan lingvistik va ekstralingvistik muammolarni bartaraf etish usullarini yaxshi o‘zlashtirish;
- kompyuter texnologiyalarni badiiy tarjimani tahrir qilishda samarali foydalana olish.

Ushbu modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar quyidagi **malakalarni** egallashlari mo‘ljallanadi:

- badiiy tarjimada foydalaniladigan tarjima uslub va usullarni tarjima jarayonida samarali qo‘llay olishni o‘zlashtirish;
- badiiy tarjimada yuzaga keladigan lingvistik muammolarni tegishli tarjima usullari orqali bartaraf etishni badiiy tarjima tahriri orqali tushuntira olishni amalda qo‘llay olish;

- badiiy tarjimada yuzaga keladigan ekstra-lingvistik muammolarni tegishli tarjima usullari orqali bartaraf etishni badiiy tarjima tahriri orqali tushuntira olishni amalda qo‘llay olish.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Badiiy tarjima va tahrir” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, badiiy tarjima ilmidagi eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi mashg‘ulotlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning badiiy tarjimaga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning semantic xarita, kluster, aqliy hujum singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Badiiy tarjima va tahrir” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning Oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Badiiy tarjima va tahrir” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan badiiy tarjimalar to‘g‘risida fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o‘qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya yuklamasi
----------	------------------------	-----------------------------

		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Badiiy tarjima va tahrir fanining mazmun-mohiyati	2	2	
2.	Badiiy tarjima tahririda lisoniy galizliklar va ularni bartaraf etish	2	2	
3.	Badiiy tarjima tahririda nolisoniy galizliklar va ularni bartaraf etish	2	2	
4.	O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimada fonetik va morfologik birliklar muqobillarini aniqlash	2		2
5.	O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimada sintaktik muqobillikni tahrirlash	2		2
6.	O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimaning leksik-semantik moslashuvni tahrirlash	2		2
7.	Badiiy tasviriy vositalarni tarjimda qayta ifodalanishini tahrir qilish	2		2
8.	Badiiy tarjimada ekstralingvistik xususiyatlar ifodasini tahrir qilish	2		2
Jami:		16	6	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Badiiy tarjima va tahrir fanining mazmun-mohiyati.

Badiiy tarjima va uni tahrir qilishning nazariy va amaliy asoslari. Tarjima tushunchasining asosiy lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari. Badiiy tarjimani tahrir qilishning asosiy tamoyillari sifatida badiiy tarjimaning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, stilistik, matniy kabi lingvistik xususiyatlari; madaniy, pragmatik, gender, kognitiv va xokozolar singari ekstralingvistik xususiyatlari nazarda tutiladi. Badiiy tarjima tarjima sohasining boshqa

ushlubdagi ko'rinishlaridan o'zida tilning barcha sathiga doir lisoniy birliklar va turli aspektlarga doir ekstralingvistik birliklar qo'llanganligi, badiiy matnning janriy xususiyatlari, estetik qiymatga egaligi, muallif uslubi, vaqt, makon va zamon masalasi kabilar namoyon bo'lishi bilan farq qiladi. O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimada qo'llanadigan tarjima uslub va usullarini til sathlari bo'yicha tahlil qilish aslyat va tarjima matnlarining struktur, leksik, funksional ekvivalentlik xolatlarini aniqlash imkonini beradi.

2-mavzu. Badiiy tarjima tahririda lisoniy galizliklar va ularni bartaraf etish.

O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimini tahrir qilishda lisoniy g'alizliklar, tarjimada uchraydigan xatoliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish usullarini talabalarga o'rgatish uchun ushbu tarjima g'alizliklari va xatolarni kelib chiqish omillarini anqilab olish talaba etiladi. Yuqorida takidlab o'tilgan badiiy tarjimaning lisoniy qusurlari odatda o'zbek va ingliz tillarining lingvistik sathlari bo'yicha farqli jihatlari yuzasidan kelib chiqadi. Mazkur farqli jihatlar tilning barcha sathlarida kuzatiladi. Tillar orasidagi turli xil farqlar ma'lum bir tildagi ma'lumotni boshqa bir tilga tarjima qilishda ko'plab lisoniy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar aslyat va tarjima tillari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi, ya'ni tillarning genetik jihatidan yaqin yoki uzoqligiga qarab ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ular qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, tarjima jarayonida lisoniy qiyinchiliklar shunchalik kam yuzaga keladi. Agar aslyat va tarjima tillari ingliz va nemis (Hind-Evropa oilasining german tillari guruhiga) yoki o'zbek va turk (Oltay tillari oilasining turkiy tillar guruhiga) tillari kabi bir til oilasi yoki guruhiga mansub bo'lsa, tarjimon lisoniy muammolarga kamroq duch kelishi mumkin.

3-mavzu. Badiiy tarjima tahririda nolisoniy galizliklar va ularni bartaraf etish.

Badiiy tarjima obekti bo'lgan badiiy matnda nafaqat tilning barcha sathlariga tegishli bo'lgan lisoniy birliklar, balki madaniy, ijtimoiy, kognitiv, pragmatic, gender kabi nolisoniy omillarni anglatadigan til birliklari

qo'llanishi bilan boshqa uslubdagi matnlardan farq qiladi. Badiiy tarjimani tahrir qilishda bu kabi nolisoniy birliklar tarjimasida yuzaga keladigan tarjima g'alizliklarini bartaraf etishda lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, gender tilshunosligi kabi fan sohalariga murojaat etilishi va lakuna, modulyatsiya, implikatsiya, eksplikatsiya kabi tarjima usullarini faol qo'llanishiga ahamiyat berish lozim.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimada fonetik va morfologik birliklar muqobillarini aniqlash

Badiiy tarjimaning fonetik sath bilan bog'liq muaamolari fonetik transformatsiyalar xisoblangan transkripsiya va transliteratsiya kabi usullardan samarali foydalanish nazarda tutiladi. Transkripsiya va transliteratsiya atoqli otlar (ismlar), geografik nomlar, tashkilot, idora, muassasa nomlari hamda kema, mehmonxona nomlarini transkripsiya qilish yoki transliteratsiya qilish, ya'ni yuqorida tilga olingan nomlardagi tovushlarni tarjima tilida mos tovush yoki harflar bilan berishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, ingliz tilida transkripsiya va transliteratsiya qilish mumkin bo'lgan 44 ta tovush, shulardan 20 tasi unli va 24 tasi undosh, transliteratsiya qilish uchun 26 (shulardan 20 tasi undosh va 6 tasi unli) harf mavjud.

Ingliz tilidagi unli tovushlarni o'zbek tilida transkripsiya va transliteratsiya qilish aksariyat hollarda muammo yaratmaydi. Ingliz tilidagi monoftonglar o'zbek tili uchun xos bo'lgan monoftonglar yordamida transkripsiya va transliteratsiya qilinadi. Diftonglarga kelsak, ularni ham o'qilishi faqat ingliz tili fonetik xususiyatlariga bog'liq. Ingliz tilida unli harflar birikmasi ham turli holatda turlicha o'qilish xususiyatiga ega. Asosiy muammo bu yerda ingliz tilidagi undosh tovushlar va undosh tovush birikmalariga taalluqlidir. Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bir unli harfning bir necha xil (urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inda) o'qilishi hisoblanadi. Undosh harf va harf birikmalarining ham kamida ikki xil o'qilishi mumkin. Ingliz unli tovushlari, unli

tovush birliklari, undosh tovushlar va undosh tovushlar birliklarining o'qilishi tarjima jarayonida qo'llanadigan transkripsiyada hisobga olinishi lozim. Ingliz tili undosh tovushlari va tovush birliklarini o'zbek tiliga transliteratsiya qilish muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

2-mavzu. O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimaning sintaktik muqobillikni tahrirlash

O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimada sintaktik nomuvofiqliklar o'zbek va ingliz tilining morfolgik tasnifga ko'ra ikki til guruhiga tegishli ekanligi bilan belgilanadi. Tillarning morfologik tasnifiga ko'ra ingliz tili flektiv tillar guruhiga, o'zbek tili esa agglyutinativ tillar guruhiga mansubdir. Badiiy tarjimada uchraydigan sintaktik muammolar nafaqat nasriy matnlar tarjimasida balki, she'riy matnlar tarjimasida ham ko'p yuzaga keladi. Chunki, she'riy matnlardagi o'ziga xos inversiya, ritm, qofiya kabilarni tarjima tilida ham aks ettirishda ikki tilning sintaktik xususiyatlarini yaxshi bilish talab etiladi. Bir tildan xorijiy tilga badiiy tarjima jarayonida sintaktik konstruktsiya katta ahamiyatga egadir. Tarjimada sintaktik konstruktsiya deganda asliyat tili sintaktik konstruktsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, tarjima tilining sintaktik konstruktsiyasiga moslashtirishga aytiladi. Badiiy tarjimada asliyat tili matnining sintaktik konstruktsiyasining o'ziga xos xususiyatlariga jiddiy e'tibor qaratib tarjima tiliga olib o'tish sintaktik nomuvofiqlikni yuzaga kelmasligida alohida ahamiyatga ega.

3-mavzu. O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjimaning leksik-semantik moslashuvni tahrirlash

Badiiy tarjimaning leksik-semantik xususiyatlari, tarjimaning bu ko'rinishida uchraydigan leksik-semantik muammolar yuzasidan so'z borganda, asliyat badiiy matnida qo'llangan leksik birliklar, ularning muallif tomonidan qo'llangan denotativ va konnotativ ma'nolari, so'zlarning polisemantik xususiyatlari, terminlar, realiyalar, neologizm va okkazionalizmlar, leksik birliklarning yasali shakliga ko'ra qo'shma so'zlar, qisqartmalar,

konversiyalarning tarjima tilida to'g'ri qayta ifodalanishi kabi masalalar oldingi planga chiqishi lozim. Badiiy matn tarjimasining to'laqonli kommunikativ funksiyaga ega bo'lishi uchun bo'lajak badiiy tarjimondan kasbiy kompetentsiyasi tarkibiga kiruvchi lingvistik kompetentsiyasida asliyat va tarjima tillarining leksik-semantik sathidagi o'xshashlik va farqli jihatlari borasida bilim va ko'nikmalar yetarli darajada shakllangan bo'lishi taqozo etiladi.

4-mavzu. Badiiy tasviriy vositalarni tarjimda qayta ifodalanishini tahrir qilish. Badiiy matnda qo'llangan tasviriy vositalarni tarjima matnida qayta ifodalanish jihatlari tahrir qilish uchun asliyat matnida qo'llangan alliteratsiya, onometapiya, qofiya, ritm kabi fonetik stilistik usullar; ajratilgan izoh, xiazm, takror, antiteza, ritorik so'roq gaplar, litota kabi sintaktik stilistik usullar hamda metafora, metonimiya, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, shaxslantirish, oksimoron, zeugma, so'z o'yini kabi leksik stilistik usullar ifodasini aniqlash va ularni asliyat matni bilan solishtirish, stilistik vositalarda aks etgan madaniy konnotativ ma'nolarni tarjima tiliga moslanganligini tahlil qilish kabi ishlar amalga oshiriladi.

5-mavzu. Badiiy tarjimada ekstralingvistik xususiyatlar ifodasini tahrir qilish. Badiiy tarjimada ekstralingvistik xususiyatlarni tahrirlash odatda badiiy matnda qo'llangan madaniy birliklar, milliy-madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan lisoniy birliklar, olamni anglash va tushunishdagi aliyat matni muallifi va tarjimon o'rtasidagi farqli va o'xshashliklar, tarjima matnining kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan xolatda qayta yaratilishi, jamiyat ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi lisoniy birliklarni tarjima tilida ham to'laqonli berilishi, muallif va tarjimon psixologiyasi kabi bir qator omillarni xisobga olishni talab qiladi. Bu borada badiiy matn tarjimoni o'zida ensiklopedik bilimni mujassamlashtirishi va ensiklopedik kompetensiyani shakllantirishi lozim.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o'qitish;

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda badiiy tarjimaga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

**II. MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to‘siqlar


Namuna: Badiiy matnlar tarjimasida lingvistik tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Badiiy matn tarjimasida bo‘yicha lingvistik tahlilning kuchli tomonlari.	Asliyat va tarjima matnlarining til sathlari bo‘yicha faqri va o‘xshash jihatlari bo‘yicha har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Badiiy matn tarjimasida bo‘yicha lingvistik tahlilning kuchli tomonlari.	Asliyat va tarjima matnlarining nolisoniy xususiyatlari tahlilini tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
O	Badiiy matn tarjimasida bo‘yicha lingvistik tahlilni (ichki) imkoniyatlari.	Asliyat va tarjima matnining barcha til sathlari jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
T	To‘siqlar (tashqi).	Asliyat va tarjima tillarida o‘zaro bir-biriga lakuna xisoblanadigan lisoniy

	birliklar bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.
--	---

“Semantik xarita” metodi

Semantik xarita interfaol metodi darsning amaliy qismining boshlanishida, ya'ni asliyat matni tinglovchilarga taqdim etilgandan keyin qo'llanishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol metod orqali tinglovchilar uchun notanish bo'lgan ayrim so'zlarning tarjimasi, ularning ma'nolari yuzasidan ma'lumotga ega bo'la oladi. O'qituvchi tinglovchilarning badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish yuzasidan tarjima qilish uchun taqdim etilgan matndagi biror so'z va uning semantik xaritasini tuzishni topshiriq qilib beradi.



Mazkur interfaol metod talabalarning lingvistik, kasbiy, kommunikativ kompetensiyalari hamda mustaqil fiklash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi.

Linvistik tahlil tizimlari					
Fonetik tahlil		Sintaktik tahlil		Leksik-semantik tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Ikkita to’g’ri va bitta xato” metodi

“Ikkita to’g’ri va bitta xato” interfaol metodi aslyiat matnining bir necha xil tarjima variantlarini solishtirib tahlil qilish orqali tarjimani o’rgatishga bag’ishlanadi. Bunda tinglovchilarga aslyiat matni va 3 ta tarjima variantlari taqdim etiladi. Tinglovchilar o’zlarining daftarlariga 4 ta katak bo’sh joy chizadi.

Ulardan birinchisiga aslyiat matnidagi bitta gap yoziladi. Ikkinchi bo’sh katakka tarjima variantning noto’g’risi yoziladi. Uchinchi va to’rtinchi bo’sh kataklarga to’g’ri tarjima variantlari yoziladi. Bu topshiriqlarni har bir tinglovchi o’zining yondashuvi va munosabati asosida bajaradi va navbatma-navbat nima uchun to’g’ri va noto’g’ri variantlar yozilganligini asoslab beradilar.

Aslyiat matni	<i>Bulardan bittasi ichidan atlas ko’ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan</i>	Aslyiat matni
Tarjima matni 1	<i>One of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face</i>	To’g’ri variant
Tarjima matni 2	<i>One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe.</i>	To’g’ri variant

Tarjima matni 3	<i>One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress</i>	Noto'g'ri variant
--------------------	--	-------------------

“Keys-studi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka tartibdagi audiovizual harakat; – keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); – axborotni umumlashtirish; – axborot tahlili; – muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; – asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; – har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; – muqobil yechimlarni tanlash.
4-bosqich: Keys	<ul style="list-style-type: none"> – yakka va guruhda ishlash;

yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> – muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; – ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; – yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.
---	--

Keys. Badiiy (she’riy) matn tarjimasini tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.


Namuna: Fikr: “Tarjima uslublari asliyat matnning uslub jihatidan turiga qarab tanlanadi va ular tarjimonga o‘z yondashuvini belgilab olishga yordam beradi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tarmoqlar” metodi

“Tarmoqlar (Cluster)” metodi tinglovchilarni faollashtirishga va mustaqil fikrlashga undaydi hamda ta’lim jarayonining markazida bo‘lgan tinglovchi va o‘qituvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Tinglovchi dars jarayonida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayon ta’lim oluvchilarning o‘qib-o‘rganishini rag‘batlantiradi, darsga qiziqishning yuqori darajada bo‘lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlarga muvofiqlashtirishda tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lishni, munozara va tahlilni amalda bajarish orqali fikr-mulohaza yuritishni ta’minlaydi.

Tarmoqlar interfaol metodini badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etishda qo'llash berilgan matndagi sintaktik muammolarni tegishli transformatsiya va yondashuvlar orqali bartaraf etishga yordam beradi.



Ushbu interfaol metod orqali tinglivchilarning til ko'nikmalari bilan birgalikda, ularning lingvistik, nasriy va kasbiy kompetentsiyalari ham rivojlanadi. Bu metod badiiy tarjimaning sintaktik muammolaridan tashqari, leksik-semantik, stilistik muammolari va ularni bartaraf etish usullariga bag'ishlangan darslarda ham foydalanilishi mumkin.

“Oltita fikrlovchi qalpoqcha” metodi

Oltita fikrlovchi qalpoqcha metodi muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakatni ifodalaydi. Unga ko'ra talabalar olti xil rangdagi qalpoqlarni kiyish orqali fikrlashning muayyan jarayonlarini amalga oshiradi. Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish usullarini o'rgatish metodikasida qalpoqlachalarning ranglari ostida asliyat matnida qo'llangan leksik birlikning tarkibi belgilanadi hamda quyidagi ranglar ostida tegishli leksik birliklar va ularning kontekstual ma'nolarini topish va matnga moslab tarjima tiliga olib o'tish talabalarga topshiriq sifatida beriladi.

Qalpoqlarning ranglari quyilagilarni anglatadi:

Oq qalpoq	denotative soʻzlar
Qizil qalpoq	polisemantik soʻzlar
Qora qalpoq	konnotativ maʼnoli soʻzlar
Sariq qalpoq	terminlar
Yashil qalpoq	neologizmlar
Koʻk qalpoq	realiyalar

Bunda qalpoqlarning ranglari boʻyicha leksik birliklar tarkibini taqsimlashdan maqsad shuki, yorqin ranglar, jumladan qizil, qora, hamda koʻk qalpoqlar ostidagi soʻz va soʻz birikmalari badiiy tarjimada leksik-semantik muammolarni yuzaga keltirishda asosiy rol oʻynaydi. Oq, sariq hamda yashil rangdagi soʻz va soʻz birikmalarining tarjimasida esa talabalar nisbatan kamroq muammolarga duch kelishadi. Oʻqituvchi tarjima jarayoniga yorqin rangdagi leksik birliklar tarjimasiga jiddiyroq eʼtibor qaratish lozimligini tavsiya etadi.

Ushbu interfaol metod talabalarning mustaqil fikrlash, oʻz ustida ishlash koʻnikmalari, shuningdek, lingvistik, professional hamda kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali oʻqitishni tashkil etish shakli boʻlib, u ikkita oʻzaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali koʻrib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Tarjimaning asosiy lingvistik usullari.



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:

BADIIY TARJIMA TAHRIR FANINING MAZMUN-MOHIYATI

REJA:

1. *Tarjima tushunchasining asosiy mohiyati*
2. *Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari*
3. *Badiiy tarjima tahririning tahlil metodlari*
4. *Badiiy tarjima tahririda tarjimon yondashuvi masalasi*
5. *Badiiy matn tarjimoniga qo'yiladigan talablar*

Tayanch so'z va iboralar: *Tarjima, badiiy tarjima nazariy asoslari, aslyat matn, tarjima matn, lisoniy tahlil, nolisoniy tahlil, komponent tahlil, kontekstual tahlil, tarjima uslubi, ijodiy, erkin, kommunikativ, semantik tarjima uslubi.*

Tarjima tushunchasining asosiy mohiyati. Azal-azaldan dunyo xalqlarining bir-birlari bilan muloqot qilishida ma'lum darajada muammolar kelib chiqqan. Bunga ko'p millat va elatlarning bir-biri uchun tushunarsiz tillarda muloqot qilishi sabab bo'lgan. Mana shunday muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi omil – tarjima va uni amalga oshiruvchi vosita – tarjimon hisoblanadi. Shuning uchun tarjimani ikki til, tarjimonni ikki millat o'rtasidagi vositachi deb tushunishimiz mumkin. Q. Musaevning fikriga ko'ra, “insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir”¹. Darhaqiqat, tarjima – ijod mahsulidir. Bir tildagi ijod mahsulini o'zga tilda yaratish ijodkorning ijod mahsuli hisoblanadi.

M.Snel-Xornbi esa, tarjimaga “bir tilda ifodalangan narsani o'girish yoki o'sha tilning belgilarini joylashtirish jarayoni yohud harakati”² deb ta'rif beradi.

¹ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T: Fan, 2005. – B.8.

² Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. – P.39.

J.Katfordning fikricha esa “tarjima bir tildagi matn materialini boshqa tildagi matn materialining ekvivalenti bilan almashtirishdir”³. R.Bellning ta’kidlashicha “tarjima aslyat tilida ifodalangan narsaning semantik va stilistik ekvivalentligini saqlagan holda tarjima tilida ifodalashdir”⁴. Y.Nayda va S.Taber “tarjima manba tilidagi ma’lumotni, birinchidan, ma’no terminlari, ikkinchidan, uslub terminlari jihatidan eng yaqin ekvivalentini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat,”⁵ jarayon deb hisoblaydi. Umuman olganda, tarjima ikki tilning o’zaro lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ijodiy jarayon hisoblansa-da, insonlar tomonidan yaratiladigan og’zaki nutqdagi yoki yozma shakldagi matnlar, jumladan, hajviy matnlarda biror tilning o’ziga xos lingvistik xususiyatlaridan tashqari ekstralingvistik xususiyatlar ham aks etadi.

Badiiy tarjimaning o’ziga xos xususiyatlari. Badiiy tarjima - bu umuman olganda ushbu sohaning boshqa turlaridan tubdan farq qiladigan alohida turi hisoblanadi. Badiiy tarjimada muallifning ijodiy, intellektual va intuitiv ifodalari aks ettirilishi kerak. Aslida, adabiyot o’zining estetikasi bilan ajralib turadi. Badiiy tarjimalarning estetikasiga unchalik ahamiyat berilmaydi, chunki bu tarjimalar odatda asl deb qabul qilinmaydi. Badiiy tarjimalarning quyidagi xususiyatlari ularni umumiyashtiradi:

- ifodalilik;
- qo’shimcha ma’noga egalik;
- ramziylik;
- shakl va mazmunga e’tibor qaratish;
- sub’ektivlik;
- ko’p talqin qilishga imkon berish;
- abadiy va universallik;
- kommunikativ ta’sirni «kuchaytirish» uchun maxsus vositalardan foydalanishlik;

³ Catford J. A Linguistic Theory of Translation. – London: OUP, 1965. – P.20.

⁴ Bell R. Translation and Translating. – London and New York: Longman, 1991. – P.5.

⁵ Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. United Bible Society, 1969. – P.12.

- til me'yorlaridan chetga chiqish tendentsiyalari.

S.Landers va P.Nyumark kabi boshqalar ham badiiy tarjimaga adabiy tilning asosiy xususiyatlari va muammolarini o'rganadi deya ta'rif beradi. P.Nyumark tarjimon talqin qilishi kerak bo'lgan adabiy tilning beshta asosiy unsuridan - majoziy ma'no va allegoriya, onomatopedik tabiat (tovush ma'no singari muhim), ritm, har bir so'zning e'tibordan chetda qolmasligi, ko'p ma'noli so'zlar va birikmalardan foydalanish jixatlariga aniqlik kiritdi. Badiiy tarjima - tarjimaning o'ziga xos turlaridan biri bo'lib, u badiiy janr va uning kichik janrlarini tarjima tilidagi asarning badiiy detallariga, badiiylikning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda, olib o'tish bilan bog'liq bo'gan jarayon bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: asliyatning ijodiy uslubi, qayta ifodalash, semantik to'kislik, sintaktik va leksik chalkashliklar, ko'p ma'nolilik, o'zaro ta'sirning olib o'tilishi, ko'p qatlamlilik, ramziylik, gipersemantizatsiya, majoziylik, ohang (insoniy his-tuyg'ularni o'zida jamlagan holda).

Badiiy tarjima tahririning tahlil metodlari.

Badiiy tarjimani tahrir qilishda bir qator tahlil metodlari qo'llanib, ular asliyat va tarjim matnlarini o'zaro struktur, semantik va kontekstual muqobilligini aniqlashga yordam beradi.

Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, xodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni taxlil kilib boradi, asliyat tilidagi vazifasini, o'rmini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniklaydi va tarjima tilida ham shu jihatlar ask etganligi bo'yicha solishtiriladi. Masalan, mazkur metod asosida u yoki bu tilning tovush tizimi, tovushlarning talaffuz xususiyatlari, morfemalar tarkibi, tuzilishi, grammatik kategoriyalar, leksik birliklar, ularning shakli va ma'nolari so'z birikmasi va gap turlari - ularning tuzilishi, mazmuniy jixatlari, faolligi kabilar tarjima tilida ham xuddi shu jihatlar bilan ask etganligi tadqiq va taxlil qilinadi.

Distributiv taxlil muayyan til birliklari bilan bevosita bog'liq xolda amalga oshadi. Ushbu jarayonda fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi va gap

kabi lisoniy birliklarning distributsiyasi-joylashish o'rne (pozitsiyasi), tartibi, oldinma - keyin kelishi, qo'llanish imkoniyatlari aniqlanadi. Ayni vaqtda ushbu lisoniy birliklarning o'zaro muayyan aloqaga - semantik - sintaktik munosabatga kirishuvi, boglanishi-birikishi xam o'rganiladi. Boshkacha aytganda, til birliklarining distributsiyasi fonema uchun ma'lum fonemaning oldidan va ketidan keladigan fonemalardir, morfema uchun esa morfemadan oldin va keyin keladigan morfemalardir. Ushbu metodning badiiy tarjimini tahrir qilishda qo'llashda aslyat matni sintaktik strukturasi tahlil qilish orqali ushbu struktura tarjima matniga moslashtiriladi. Til birliklarning joylashish tartibi tarjima tili me'yorlariga mosligi aniqlanadi.

Muayyan so'zning semantik moslik xususiyati, ya'ni uning semantik valentligini aniqlash tarjima matnining komponent tahlil qilish imkon beradi. So'zning leksik ma'nosini o'rganish usuli manoni minimal semantik komponentlarga, ya'ni semalarga ajratishga qaratilgan bo'ladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, birinchi marta komponentli tahlil turli tillarga mansub so'zlarning kichik tematik guruhini qiyosiy tavsiflash maqsadida foydalanilgan. Badiiy tarjimini tahrir qilishda component tahlil metodi orqali aslyat matnidagi kichik semalardan to makro konnotativ ma'noli lisoniy birliklarni tarjima matnida o'zaro muqobillik xususiyatlarini aniqlanadi.

Badiiy tarjima tahririda tarjimon yondashuvi masalasi. Badiiy tarjimini tahrir qilishda tarjimon yondashuvi tarjimon tarjimini amalga oshirishda tanlagan uslubni aniqlash va ushbu tarjima qilingan badiiy matnni shu uslub me'yorlariga hamohanglini tahlil qilishga yordam beradi. Tarjima uslubini tarjima jarayonida matnning uslub jihatidan turiga va tarjimonning maqsadiga qo'ra tanlanadigan usul sanaladi. Ko'plab xorij tarjimashunos olimlar tomonidan taklif etilgan tarjima usublari tarjimini amalga oshirish usullari, yo'llari, uslublarini belgilab beradi va matnning uslub jihatidan turiga ko'ra tanlanadi. Badiiy matnlar badiiy uslubga doir matnlar sirasiga kirganligi sababli ularni tarjima qilishda quyidagi uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Semantik tarjima asliyat matnining estetik qiymatini imkon qadar ko'proq hisobga olish maqsad qilinadi, ya'ni ma'no asosiy ahamiyat kasb etadi. Semantik tarjimada asliyatning aniq kontekstual ma'nosi tarjima tilining semantik va sintaktik strukturasi imkon qadar yaqinlashtirishga harakat qilinadi. Semantik tarjimada asliyat tiliga yondashish kuzatiladi. Tarjimada asliyat matni muallifining fikr va g'oyalari saqlanadi. Tarjima hamma uchun tushunarli bo'ladi ammo asliyat madaniyat olib o'tiladi va agar asliyat asosiy ma'lumotlari qo'shimcha konnotativ ma'nolarni ifodalasa, u o'quvchiga ushbu ma'nolarni tushuntirishga yordam beradi.

2. Kommunikativ tarjima uslubda asliyatning aniq matniy ma'nosi tarjima qilinib, bu usulda tarjima mazmuni va tili o'quvchiga tushunarli bo'ladi. Kommunikativ tarjima o'z o'quvchilariga iloji boricha yaqinroq ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Kommunikativ tarjimada asliyat tilga yondashish kuzatiladi; u erkin muloqotga kirishish maqsad qilinadi. Tarjima jarayonida tarjima tili o'quvchisiga o'z tili va madaniyati uchun noaniq bo'lgan xorijiy so'zlar va ular natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar yoki noaniqliklarni bartaraf etishga imkon qadar xarakat qilinadi. Bu kabi noaniq va tushunarsiz terminlarga nisbatan tarjimon bag'rikenglik bilan yondashadi. Bunda ma'lumotning kontentidan ko'ra uning tasir kuchiga urg'u beriladi. Tarjima ravon, oddiy, aniq, to'g'ri bo'lib, talqin qilinishi qiyin bo'lgan qismlarda ko'proq umumiy terminlar qo'llanadi.

Badiiy matn tarjimoniga qo'yiladigan talablar. Boshqa soha mutaxassislari singari, badiiy tarjimonlardan ham o'ziga xos qobiliyat va malaka talab etiladi. Odatda badiiy tarjimonlardan quyidagi sifatlar talab yetiladi:

- sodiqlik va axloqiylik nuqtai nazaridan kasbga hurmat ko'rsatib, matni tarjima qilish; ijtimoiy, diniy, axloqiy, mafkuraviy va boshqa sabablardan mustasno hollarda, asl nusxada qasddan to'ldirishlar, o'zgartirishlar, o'chirishlar amalga oshirilmaydi;

- matndagi barcha jihatlar tarjimada hisobga olinishi kerak, so'zma -so'z tarjima qilish badiiy tarjimada samara bermaydi;

- tarjima jarayonida asliyat va tarjima tillarining grammatik asoslari (so'z tartibi, asosiy jumla, gap turlari, grammatik tahlil, zamonlar va boshqalar), lug'at tarkibi (so'z birikmalari, turli sohalarning texnik terminlari, retorikaning asosiy turlari va ifodalari va boshqalar), tovush xususiyatlari (alliterasiya, ohang, ritm, qofiya va boshqalar)ni bilishi talab etiladi;

- ohangda barkamollik;

- asliyat va tarjima tillarining til sathlari: fonetik, grammatik, leksik, stilistik xususiyatlari, shuningdek, uslub kategoriyalari (rasmiy, norasmiy, neytral, og'zaki, shevaga xos va boshqalar) borasida yaxshi bilimga ega bo'lishi;

- tarjimon ikki tilning funktsional uslublari o'rtasidagi rasmiy yoki standart, eski yoki zamonaviy, so'zlashuv yoki badiiy, har ikkala tilda qo'llanilishi yoki qo'llanmasligi bilan bog'liq bo'lgan farqlarni yaxshi bilishi;

- asliyat va tarjima tillari hamda til sohiblarining madaniyatidan ham yaxshi bilimga ega bo'lishi;

- bizni o'rab turgan olamda bo'layotgan fan va texnologiya, madaniyat, ijtimoiy, siyosiy, diniy, ma'naviy, ma'rifiy qadriyatlar va munosabatlar haqidagi so'ngi yangiliklar va rivojlanishlardan bohabar bo'lishi;

- tarjima tili o'quvchilarining diniy, axloqiy, ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy sezgirliklari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi;

- tarjimaga ixtisosligi (undan yuqori daraja) yoki tarjima nazariyasi haqidagi asosiy bilimlarning (asosiy tamoyillar, ko'rsatmalar, asliyat tili matni, yozuvchi va tarjimonning niyati, yozuvchi va tarjimonning munosabati, asliyat tili va tarjima tili me'yorlari, muammolar va boshqalar), eng muhimi, tarjimaning asosiy usullari (so'zma-so'z/semantik, erkin/kommunikativ, pragmatik, pragmatik bo'lmagan, ijodiy, ijodiy bo'lmagan/oddiy, she'riy/she'riy bo'lmagan, adabiy/oddiy va boshqalar) borasida mukammal bilimga ega bo'lishi;

- tarjimonning bu boradagi onlayn imkoniyatlari bilan bir qatorda yeng yaxshi va eng so'nggi bir tilli va ikki tilli lug'atlar va ma'lumotnomalarga ega bo'lishi kabilar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tarjimaning asosiy mazmun-mohiyatini tavsifab bering.
2. Badiiy tarjimani tahrir qilish qanday tahlil metodlari faol qo'llanadi?
3. Badiiy tarjimaning boshqa uslubdagi matnlar tarjimasidan asosiy farqi nimada?
4. Tarjimaga yondashuv nima?
5. Badiiy matn tarjimasida qo'llanadigan tarjima uslublarni tavsiflab bering.
6. Odatda badiiy tarjimonga qanday malaka va talablar qo'yiladi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
2. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
3. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.
4. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126 bet.
5. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
6. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

2-MAVZU:

BADIIY TARJIMA TAHRIRIDA LISONIY GA'LIZLIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

REJA:

1. *Badiiy tarjima tahriridagi fonetik ga'lizliklarni bartaraf etish*
2. *Badiiy tarjima tahriridagi grammatik ga'lizliklarni bartaraf etish*
3. *Leksik-semantik g'alizliklar va badiiy tarjima tahririda ularni bartaraf etish*
4. *Badiiy tarjimada stilistik g'alizliklarni bartaraf etish*

Tayanch soʻz va iboralar: *Tarjimada lisoniy ga'lizliklar tushunchasi va badiiy tarjimada yuzaga keladigan lisoniy g'alizliklarni aniqlash, fonetik, grammatik, leksik, stilistik g'alizliklar, aslyat matni, tarjima matni.*

Badiiy tarjima tahriridagi fonetik g'alizliklarni bartaraf etish. O'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada yuzaga keladigan lisoniy g'alizliklar bu ikki tillarning genetik va morfologik tasnifga ko'ra ikki til oilasiga mansubligi sababli yuzaga chiqadi. Genetik jihatdan o'zbek tili Oltoy tillar oilasining turkey tillar guruhiga. Ingliz tili esa Hind-evropa tillar oilasining german tillar guruhiga mansub. Morfologik tasnifga ko'ra esa, ingliz tili flektiv tillar oilasiga o'zbek tili esa agglyutinativ tillar guruhiga kiradi.

Ingliz tilidagi unli tovushlarni o'zbek tilida transkripitsiya va transliteratsiya qilish aksariyat hollarda muammo yaratmaydi. Ingliz tilidagi monoftonglar o'zbek tili uchun xos bo'lgan monoftonglar yordamida transkripsiya va transliteratsiya qilinadi. Diftonglarga kelsak, ularni ham o'qilishi faqat ingliz tili fonetik xususiyatlariga bog'liq. Ingliz tilida unli harflar birikmasi ham turli holatda turlicha o'qilish xususiyatiga ega. Asosiy muammo bu yerda ingliz tilidagi undosh tovushlar va undosh tovush birikmalariga taalluqlidir. Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bir unli harfning bir necha xil (urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inda) o'qilishi hisoblanadi. Undosh harf va harf

birikmalarining ham kamida ikki xil o'qilishi mumkin. Ingliz unli tovushlari, unli tovush birliklari, undosh tovushlar va undosh tovushlar birliklarining o'qilishi tarjima jarayonida qo'llanadigan transkripsiyada hisobga olinishi lozim. Ingliz tili undosh tovushlari va tovush birliklarini o'zbek tiliga transliteratsiya qilish muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Bu holatda fonetik transformatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Fonetik transformatsiyalar xisoblangan transkripsiya va transliteratsiya atoqli otlar (ismlar), geografik nomlar, tashkilot, idora, muassasa nomlari hamda kema, mehmonxona nomlarini transkripsiya qilish yoki transliteratsiya qilish, ya'ni yuqorida tilga olingan nomlardagi tovushlarni tarjima tilida mos tovush yoki harflar bilan berishni nazarda tutadi.

Badiiy tarjima tahriridagi grammatik ga'lizliklarni bartaraf etish. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjima transformatsiyalariga ehtiyoj aksariyat hollarda o'zbek tiliga xos bo'lgan dunyoni his etish va shu bilan bog'liq tilning tanlash qobiliyati yoki xususiyati bilan bevosita aloqadordir. Tarjima jarayonida nafaqat ikki til aloqada, balki ikki madaniyat bir-biri bilan to'qnashadi. Har bir tilning o'ziga xos xususiyati ikkita til aloqada bo'lganda namoyon bo'ladi. Ayni bir fikr ikki tilda ikki xil ifodalanadi. Ingliz tilida fe'l o'zbek tiliga nisbatan ko'proq qo'llanish xususiyatiga ega. Ingliz tilida atoqli otdan ko'ra kishilik olmoshi, o'zbek tilida atoqli ot va nisbatan kamroq kishilik olmoshlari qo'llanishi mumkin. Ingliz tilida fikrlarni ixchamroq ifodalashga intilish, o'zbek tilida fikrlar ko'proq sifatlarni qo'llab, tasviriy so'zlarni ishlatishga intilish seziladi. Ingliz tilida shaxsi noma'lum gaplar o'zbek tiliga nisbatan ancha ko'proq qo'llanadi. Grammatik transformatsiyalarni qo'llashga tegishli barcha sabablar uning ikkita muhim, ya'ni ob'ektiv va sub'ektiv jihatlariga qaratilganini ko'rish mumkin. Ob'ektiv sabablarga ko'ra ikki tilning madaniy farqlari bilan bog'langan leksik, grammatik, stilistik, pragmatik va shu kabi boshqa tarjima transformatsiyalarga ehtiyoj seziladi. Sub'ektiv sabablarga vaqtning yetishmasligi, tarjimonning individual uslubi, tarjimonning asliyat yoki tarjima tilining vakili bo'lishi, tarjimonning dunyoqarashining kengligi, asliyat matnida

tasvirlanayotgan mavzuni bilish yoki bilmasligi va shu kabi bir qator xususiyatlar kiradi.

Ta'kidlash lozimki, bunda ikkita asosiy grammatik almashtirish turi mavjud: grammatik transformatsiya yordamida yasalgan turg'un tillararo muqobillar hamda tarjima jarayonida kontekst asosida yaratilgan kontekstual muqobillar. Mazkur almashtirish yoki o'zgartirishlar ikki, ya'ni asliyat va tarjima tillaridagi strukturadagi farqlar sababli yuz beradi:

1. Til birliklarining til sistemasidagi (gap bo'laklari) tutgan o'rni.

2. Til ichidagi omillar.

3. Grammatik kategoriyalar:

- son kategoriyasi
- jins kategoriyasi
- aniqlik/noaniqlik kategoriyasi
- sifat darajalari kategoriyasi
- tur va zamon kategoriyasi
- nisbat kategoriyasi

4. Ingliz va o'zbek tillarining sintaksisidagi farqlar.

J.A.Golikova grammatik transformatsiyalar quyidagi o'preatsiyalardan tashkil topishini ta'kidlagan:

- 1) gap strukturasi o'zgartirish;
- 2) so'z tartibini o'zgartirish;
- 3) so'z turkumini yoki gap bo'laklarini o'zgartirish;
- 4) so'z qo'shish;
- 5) grammatik sabablarga ko'ra so'zlarni tushirib qoldirish.

Yuqorida keltirilgan barcha o'zgarishlar bir maqsadga, ya'ni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda adekvatlikka yoki muqobillikka erishishni nazarda tutadi.

Leksik-semantik g'alizliklar va badiiy tarjima tahririda ularni bartaraf etish. Tarjimada adekvatlikka erishishning bir nechta yo'llari mavjud. Bu yo'llar

tarjimaning turli metod va usullarini o'z ichiga oladi. Tarjima birligi masalasi tarjima nazariyasining muhim va eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi.

O'z vaqtida L.S.Barxudarov til birliklarining barchasi tarjima birligi bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surgan (Barxudarov 1969; 1973), ya'ni fonema, morfema, so'z, so'z birligi va gap tarjima birligi sifatida qo'llanishi mumkin.

Transformatsiya tarjimadagi o'zgartirishlarning alohida turi sifatida qaraladi.

Odatda leksik transformatsiyalarni yetti guruhga ajratgan. Ular o'z ichiga quyidagilarni olgan:

- 1) ma'nolarni farqlash;
- 2) ma'nolarni aniqlashtirish (ma'nolarga aniqlik kiritish);
- 3) ma'nolarni umumlashtirish;
- 4) ma'nolarni rivojlantirish;
- 5) antonimik tarjima;
- 6) ma'noni bir butun qilib o'zgartirish (tselostnoe preobrazovanie);
- 7) tarjima jarayonida yo'qolgan ma'no unsurlarini kompensatsiya qilish (o'rmini qoplash – izoh bizniki).

Yuqorida ba'zi tarjimon olimlarining tarjima transformatsiyalarini tasnifi munosabati bilan konkretlashtirish, umumlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya va shu kabilar haqida fikr yuritganimiz uchun bu yerda ularga to'xtalib o'tirmaymiz va e'tiborni hali tilga olmagan tarjima transformatsiyalari haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Ma'nolarni rivojlantirish tarjima jarayonida so'zning lug'aviy ma'nosini unga mantiqan bog'liq kontekstual ma'nosiga almashtirishni nazarda tutadi. Bunga ko'chma ma'noda qo'llanadigan leksik stilistik usullardan metafora va metonimiyalar misol bo'la oladi. Ma'noni bir butun qilib o'zgartirish ma'noni rivojlantirishning muayyan bir turi hisoblanadi. Bunda so'zdan tortib to gapgacha bo'lgan til birliklarining ichki shakllarida o'zgartirish jarayoni kechadi. Bunda o'zgarishlar elementlarga emas, balki gap yoki matnning bir butuniga daxldor bo'ladi. Har bir muayyan uslubda qo'llanishi mumkin. Ma'noni bir butun

o'zgartirish publitsistik material tarjimasida leksik transformatsiyalardan foydalanish juda keng tarqalgan.

Asliyat matnida ma'noga taalluqli, biroq tarjimada aks etmaydigan yo'qotishni qoplash kompensatsiya hisoblanadi.

Badiiy tarjimada stilistik g'alizliklarni bartaraf etish. Badiiy matn tarjimasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu –tarjimon tomondan badiiy uslub va uning o'ziga jihatlariga jiddiy e'tibor qaratilish lozimligidir. Badiiy matnning uslubi haqida so'z yuritganimizda stilistika va uning til sathlarida namoyon bo'lish jarayonlariga e'tibor qaratishimiz lozim. Odatda tarjimon badiiy matn uslubida fonetika, leksika, frazeologiya, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksisning stilistik imkoniyatlarini e'tiborga olishi lozim. Shunga ko'ra tarjima jarayonida asliyat va tarjima matnlarining fonostilistikasi, leksik stilistikasi, grammatika (morfologiya va sintaksis) stilistikasi, so'z yasalishi stilistikasi hamda stilistik frazeologiyaga aks etish masalasiga urg'u beradi.

Fonostilistika yoki tovush stilistikasi nutq tovushlari va prosodik vositalarni ekspresivligi va uslubiy salohiyati nuqtai nazaridan o'rganadi. Fonostilistikaning asosiy yo'nalishiga tovush variantlari, fonetik uslublar, tovush simbolizmi, fonetik uslubiy vositalar, evfoniya, ritm, qofiya va prosodik belgilarning (intonatsiya, urg'u, pauza, ohang va boshqalar) ekspresiv va emotsional xususiyatlari kiradi.

Leksik stilistika badiiy matn va uning tarjimasini tadqiqida alohida o'rin tutadi. Leksik stilistika lug'at tarkibini uslubiy farqlash muammosi, uslubiy ma'nolar tushunchasi va ularning tipologiyasi bilan shug'ullanadi. Tadqiqot ishimizning ob'ekti sifatida tanlangan asar asl ingliz tilida yozilganligi bois, biz ingliz tili lug'at tarkibi stilistikasiga ko'proq yondashamiz. Leksik stilistika deganda biz tadqiqning ikki jihatiga e'tibor qaratamiz. Birinchisi tilning leksik qatlamini tashkil qiluvchi so'zlar va ularning turlari. Ikkinchi jihatda badiiy matnda qo'llanadigan leksik-stilistik vositalar. Ingliz lug'at tarkibi uslub nuqtai nazaridan uchta guruhga bo'lish mumkin: neytral, so'zlashuv, badiiy. So'zlashuv

va adabiy qatlamlar quyidagi kichik guruhlarga bo'linadi. Badiiy qatlam oddiy badiiy so'zlar, atamalar va maxsus so'zlar, she'riy so'zlar, arxaik so'zlar, barbarizm va begona so'zlar, badiiy neologizmlardan iborat. So'zlashuv qatlamiga esa shevaga xos so'zlar, jargonizmlar, kasbga oid so'zlar, dialekt so'zlar, qo'pol so'zlar, og'zaki neologizmlar kiradi.

Badiiy matnning boshqa uslubdagi matnlardan yorqin ajratib turadigan yana bir jihat bu unda stilistik vositalarning qo'llanishidir. I.R.Galperin stilistik vositalarni quyidagi tasnifini keltirib o'tadi:

- bosh lug'aviy va kontekstual ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: metafora, metonimiya, kinoya;

- bosh lug'aviy va yasama mantiqiy ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: zeugma, so'z o'yini;

- mantiqiy va emotiv manolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: epitet, oksimoron, mubolag'a;

- mantiqiy va nominal ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vosita: antonomasiya .

So'z yasash stilistikasi affiksatsiya va so'z qo'shish vositalari yordamida hosil bo'lgan hosilalarning uslubiy potentsiali, yasama so'zlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan segmentatsiyalash, motivlashuv, sinonimik va antonimik munosabatlar, sintaktik variatsiya va stilistik usullar kabi derivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarning uslubiy qiymati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimaning lisoniy g'alizliklari deganda nimani tushunasiz?
2. Badiiy tarjimada Grammatik g'alizliklarni qanday transformatsiyalar orqali bartaraf etish mumkin?
3. Badiiy tarjimadagi lesik-stilistik g'alizliklarni bartaraf etishda qanday tarjima transformatsiyalari qo'llanadi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

3-MAVZU:**BADIIY TARJIMA TAHRIRIDA NOLISONIY
G'ALIZLIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH****REJA:**

1. *Badiiy tarjimada ekstralingvistik omillar*
2. *Badiiy tarjimada lingvokulturologik g'alizliklarni tahrir qilish usullari*
3. *Badiiy tarjimaning pragmatic xususiyatlarini tahrir qilish*
4. *Badiiy tarjimaning kognitiv xususiyatlarini tahrir qilish*

Tayanch soʻz va iboralar: *tarjima, badiiy tarjima, lison, nolisoniy omillar, madaniyat, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, asliyat matn, tarjima matn.*

Badiiy tarjimada ekstralingvistik omillar. Til sistemasi, normasi va uzus bilan bir qatorda asliyat tili va tarjima tili o'rasidagi informatsion yoki axbort

jihatlardan farqlarini belgilovchi yana bir omil mavjuddir. Bu omil ekstralingvistik bilimlar zahirasi bog'liq. Bu omillarga birinchi navbatda o'z ichiga etnografik, tarixiy, geografik va shu kabi madaniy-tarixga oid ma'lumotlar kiritiladi. Ular tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va dolzarb voqealar tilda o'z aksini topadi. Tarjimonning mana shu narsadan bexabar bo'lishi aksariyat hollarda kommunikativ-relevant ma'lumotlarni tarjima tilida yetkazib berolmasligi oqibatida fikrning ma'no mazmunini tegishli emotsional va estetik ta'siri adekvat darajada qabul qilinmaydi.

Tilda mavjud bo'lgan fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi hamda gap lingvistik tahlilning asosini tashkil etishi lozim. Umumiy tilshunoslikning bazaviy sohalaridan stilistika, aniqrog'i lingvostilistika, lingvopragmatika, lingvokul'turologiya yoki lingvomadaniyatshunoslik, lingvistik matnshunoslik, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunosligi va shu kabi sohalar nuqtai nazaridan matnning tahlil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki tarjimaning mazmuni, ifodaliligi, unda milliy koloritning saqlanishi, uslubi va janrga mos kelishi va shu kabilar haqida fikr yuritishda yuqoridagi fanlarda qo'lga kiritilgan yutuqlar tarjimaning adekvatlik va muqobillik darajasini belgilashda qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari tarjima birligini aniqlashda tarjima nazariyasiga o'z hissasini qo'shadi.

Tarjimaga lingvistik, lingvokul'turologik, kognitiv kabi ekstralingvistik xususiyatlari nuqtai nazarlardan kompleks yondashmaslik, uning lingvistik tabiatini va mohiyatini ochmaslik, uni ilmiy jihatdan asoslanmasa uni anglash, tushunish va ulardagi hodisalarni ilmiy tushunitirib berish mumkin emas.

Badiiy tarjimada lingvokul'turologik g'alizliklarni tahrir qilish usullari. Ma'lumki, badiiy matnda milliy-madaniy o'ziga xoslikni o'zida mujassam etgan leksik birliklar qo'llanadi. Ularni tarjima tiliga olib o'tish va milly-madaniy ma'noni qayta yaratish tarjimondan o'ziga xos ekstralingvist bilimni talab etadi.

Milliy-madaniy o'ziga xoslik leksikaning turli qatlamlarida ifodalanadi. Bunday leksika inson hayoti va uning barcha rang-barangliklarini aks ettiradi.

B. Ismoilovanning fikriga ko'ra, geografik tushunchalar, madaniy-tarixiy terminlar, realiyalar nomlari, millat turmush tarzi va madaniyatining o'ziga xosligini, qardoshlik aloqalari, inson kiyimlari va tana a'zolari nomlari, o'simlik va rang ma'nosini anglatuvchi so'zlar, ko'p ma'nolilik xususiyati, konnotativ va tasviriy ifoda ma'nolariga ega so'zlar milliy-madaniy o'ziga xoslikni anglatuvchi so'zlar xisoblanadi⁶. Fikrimizcha, bu nomlar guruhiga rasm-rusumlar, an'ana va odatlar, diniy qarashlar nomlarini ham kiritish mumkin. Odatda, bunday nomlar jamiyat tomonidan qabul qilingan xisoblanadi.

So'zlar turli tillarda o'zlarining denotativ ma'nolariga ko'ra bir biriga mos tushadi, lekin ifoda ma'nolariga ko'ra farq qilishi mumkin. So'zlarning ifoda ma'nolaridagi farq ko'plab omillarga, jumladan, madaniy-etnografik xususiyatlar, turli mamlakat xalqlarining o'ziga xosligi, ekologik sharoitlarning har xilligi, ijtimoiy jihatdan jamiyat a'zolarining turli qatlamlarga ajralishi kabilarga bog'liq bo'ladi.

Lingvistik adabiyotlarda "milliy-madaniy mohiyat", "milliy o'ziga xoslik", "milliy madaniyatning xususiyatlari", "milliy-madaniy o'ziga xoslik", "milliy kolorit", "milliy-madaniy semantika, etnosemalar va ijtimoiy-madaniy ma'no", "milliy o'ziga xos ma'no", "milliy aloqadorlik semasi", "hududiy-madaniy komponent yoki madaniy komponent" terminlari qo'llanadi. Ular orasida semantikada milliy o'ziga xoslikni to'liq ifodalay oladigan til birligi milliy-madaniy o'ziga xoslik termini hisoblanadi.

Milliy-madaniy o'ziga xoslik tushunchasi orqali semantik leksik birliklarning milliy o'ziga xos voqelik, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, milliy madaniyat, an'ana va marosimlarning ma'lum bir xususiyatlari tushuniladi. Milliy-madaniy o'ziga xoslik tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) milliy-madaniy ma'noga ega leksik qatlam, b) madaniy komponentli ma'noga ega so'z, v) milliy-madaniy konnotatsiyaga ega so'z.

⁶ Исмаилова Б. Категория образности и средства ее выражения в словообразовательной системе английского и киргизского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1989. – С. 70.

Milliy-madaniy ma'no termini denotativ-signifikativ ma'noli so'zlarni bildiradi va mutloq milliy-madaniy mohiyatni ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "paranji" so'zi milliy-madaniy ma'noli termin hisoblanadi. Bu terminlar guruhiga muqobili yo'q so'zlar ham kirib, bunday so'zlarning ekvivalenti boshqa tilda mavjud bo'lmaydi. Ular realiyalar, xos so'zlar deb ham ataladi. Bu kabi leksik birliklarni tarjima tiliga olib o'tishda madaniy ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, perefraz, eslatmalar kabi usullardan foydalanish va talabalarning badiiy tarjima ishlarini tahrir qilishda mana shu usullardan foydalanganlik darajasiga etibor qaratish maqsadga muvofiq.

Badiiy tarjimaning pragmatic xususiyatlarini tahrir qilish. Tarjimada mutanosiblik yaratish uchun turli tillar vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnning estetik o'ziga xosligini, uning ta'sirchan va obrazlilikini ta'minlovchi uslubiy va pragmatik xususiyatlarni aniqlash taqozo etiladi. Til birliklarining uslubiy bo'yoq kasb etish xususiyati asl va tarjima til birliklarining mazmuniy-uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro mos kelish-kelmasliklari to'g'risida qaror kabul qilish imkonini beradi. Tarjimaning bunday tahlili mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi tarjimaning asosiy sharti hisoblanadi.

Tarjima tilida asliyat tili leksik birliklarining konnotativ ma'nosini ham hisobga olishning ahamiyati to'laqonli tarjimaga erishishning omilidir. Konnotatsiya masalasining talqini tarjimaning pragmatik aspekti haqidagi masalaga to'xtalib o'tishni taqozo qiladi⁷.

Sh.Safarovning qaydicha, pragmatikani keng ma'noda anglamoq darkor, u tilshunoslikning semantika va sintaksis sohalarida o'rganiladigan masalalarni ham qamrab oladi va o'ziga xos umumlashtiruvchi yo'nalish vazifasini o'taydi. Shunga nisbatan, pragmatik nazariya so'zlovchi va tinglovchining gap yoki matn propozitsiyasini bir xilda qabul qilishini e'tiborga oladi⁸. Demak, badiiy

⁷ Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. - Amsterdam/Philadelphina: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. -184 p.

tarjimaning pragmatik xususiyatlari haqida soʻz yuritilganda asliyat va tarjima tillarda qoʻllanadigan leksik birliklarning semantik xususiyatlari va sintaktik hodisalariga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Tarjimada pragmatikaning roli xususida gapirar ekanmiz, uning aynan tarjimaga aloqador jihati – bu toʻlaqonlik tarjima yaratishga intilish ham xisoblanadi. Asliyat va tarjima tillari egalaridagi ekstralingvistik maʼlumotlar mos kelmasligi turgan gap, yaʼni asliyat va tarjima tillarida soʻzlashuvchi kishilarning “fon bilimlari” (background knowledge) bir-biridan farq qiladi. Natijada asliyat tili egalariga mutloq tushunarli boʻlgan tushunchalar tarjima tili egalari uchun tushunarsizroq, yoki umuman, tushunarsiz boʻlishi mumkin. Tarjimon tarjima asliyatga mos boʻlsa-da, ammo u tarjima tili egalari uchun tushunarli boʻlmasa, tarjimadan kutilgan maqsadga erishib boʻlmasligini eʼtibordan chetda qoldirmasligi kerak. Shuning uchun, pragmatik omilni inobatga olish asliymonand tarjimaga erishishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, tarjima qilinadigan materiallarning hammasi ham bir xil darajada pragmatik omilni hisobga olishni taqozo etmaydi. Odatda badiiy tarjimada oʻzida pragmatic xususiyatlarni mujassam ettirgan leksik birliklarni tarjima tiliga olib oʻtishda implikatsiya va eksplikatsiya usullaridan faol foydalaniladi. Eksplikatsiya asliyatdagi leksik birlikni tarjima matnida toʻliqroq sharh yoki aniqlashtiruvchi maʼnoli soʻz birikmasi bilan almashtirishni oʻz ichiga olsa, implikatsiya asliyat matnidagi eksplitsit maʼlumotni implitsit qilish uchun vaziyatdan foydalanib, yashirin maʼnoni berish usuli xisoblanadi.

Badiiy tarjimaning kognitiv xususiyatlarini tahrir qilish. Olam manzarasini madaniyatning mental taqdimoti deb aytish yoki tushunish mumkin. Olam manzarasiga madaniyatga fenomen sifatida oid boʻlgan koʻp xususiyatlar xarakterlidir: bir butunlik, murakkablik, koʻp aspektlilik, talqin qilib boʻlishlik, yemirilish va evolyutsiya jarayonini boshidan kechirish va h.k.

Olam manzarasi insonning olamni tushunishidagi eng asosiy komponentlaridan boʻlib, bilim va insonlar hulqining jamiyatdagi birligi bilan

chambarchas bog'lanishi ta'minlaydi. U insonning olamga – tabiatga, boshqa insonlarga, shu olamning vakili sifatida o'ziga munosabat turini shakllantiradi, olamda insonga o'zini tutish normasini yuklaydi, hayotga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Inson narsalarga o'zining olam manzarasini doirasida munosabatda bo'ladi. U esa o'z navbatida insonning olamdagi hulqiga qo'yiladigan cheklashlar yoki taqiqlar sistemasini shakllantiradi.

Shubhasiz, olam manzarasi umuman olganda olamning lisoniy manzarasiga nisbatan ham juda murakkabroq hodisadir. Boshqacha qilib aytganda, bunga tilga hamda til shakllari orqali insonning kontseptual olamiga tegishli qismida namoyon bo'ladigan hodisalar kiradi.

Til mikrosotsium va makrosotsium sohasida mavjud bo'ladi. Bu darajada namoyon bo'lgan til o'z vazifasini ikki ko'rinishda bajaradi: milliy madaniyat bilan o'zaro bog'liq ravishda xalqlar tillari va yerda yashovchi barcha sotsiumning universal madaniyati doirasida umuminsoniy til. Olam manzarasi muayyan lingvokulturologiya vakillarining barchasiga umumiy deb talqin etiladigan qismlardan iborat individual yaratilgan hosila sifatida namoyon bo'ladi. Bunday umumiy qismni prototipik (Kubryakovaning termini) deb atash mumkin. Mazkur qism keyinchalik u yoki bu darajadagi kommunikantlar o'rtasidagi muvaffaqiyatli, ya'ni maqsadga erishgan o'zaro munosabat kognitiv qurilishining asosi bo'ladi. Har bir til umuminsoniy kognitiv-cemantik sohaning asosiy axborotni aks ettiradi. Ular ko'p asrlara davomida sayqallanib, uning aksariyat qismi milliy til olami manzarasida shakllangan holda namoyon bo'ladi.

Madaniyatlar vositasida ko'p asrlar davomida e'tiborga sazovor g'oyalar, timollar, qadryatlar, e'tiqodlar, an'analar, o'zini tutish norma va qonun-qoidalari tarjima qilib kelingan. Bularga turli tillardagi aforizmlar, maqol va matallar, e'tiborga molik afsonalar, rivoyatlar, traktatlar va shu kabilarning tarjimalarini kiritish mumkin. Shular asosida kishilar to'plangan va mavjud bilimlariga yangisini qo'shib o'zlarining hayoti va faoliyatini tashkillashtiradi. Shu yo'l bilan madaniyat kishilar o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlovchi kanaliga aylanadi.

Universallik xususiyati esa har qanday xususiy madaniyat mazmuni tarkibida mavjud bo'ladi. Milliy madaniyatlarning universal qismi samarali kommunikaiya yoki muloqot asosi hisoblanadi, uning bo'lishi eng muhim shartlardan biridir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimaning ekstralingvist xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy-madaniy ma'no deganda nimani tushunasiz?
3. Milliy-madaniy leksik birliklar qaysi tarjima usullari yordamida tarjima tiliga olib o'tiladi?
4. Badiiy tarjimaning pragmatic omillari nimalarni o'z ichiga oladi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

8. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
9. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
10. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
11. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.
12. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126 bet.
13. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
14. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1- AMALIY MASHG‘ULOT:

O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA BADIY TARJIMADA FONETIK VA MORFOLOGIK BIRLIKLAR MUQOBILLARINI ANIQLASH

REJA:

Tayanch tushunchalar: *Tarjima, aslyat matni, tarjima matni, fonetik birlik, morfologik birlik, transliteratsiya, transkripsiya, equivalentlik, funksional ekvivalentlik.*

Topshiriqlar:

1-vazifa. *Badiiy tarjimaning asosiy xususiyatlarini bayon qiling.*

2-vazifa. *Badiiy tarjimaning fonetik va morfologik tahriri.*

Badiiy tarjimada yuzagi keladigan asosiy fonetik g'alizliklar nimalar? Badiiy matn tarjimasidagi asosiy morfologik g'alizliklar qaysilar?

3-vazifa. *Badiiy tarjima tahririda fonetik va morfologik transformatsiyalar mohiyatini tushuntiring*

4-vazifa. **Quyidagi aslyat matn va uning ingliz tiliga uch xil tarjima variantlarini tahlil qiling va ulardagi fonetik birliklar va ularni tarjimasida qo'llangan fonetik transformatsiyalarni aniqlang.**

Aslyat matni:

Otabek o'zi bilan ko'rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko'z ostidan kechirdi. Buni payqag'an Ziyoshohichi Otabekka tanitdi:

— Amakilaringizni siz tanimag'andirsiz albatta, — dedi. — Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdog'arlaridan Akram

hoji. Mirzakarim ismlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan bir kishi bo‘lib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidag‘i bir kekxa edi.

Otabek qaytadan Mirzakarim qutidorni ko‘zdan kechirdi.

— Ota qadrdonlari bilan tanishdirg‘aningiz uchun rahmat, amak, — dedi va Akram

hoji bilan Mirzakarim akaga tavozi‘landi. — Otam sizlardek yaqin do‘stlariga salom aytishni menga amonat topshirg‘an edilar.

— Rahmat, sog‘ bo‘lsinlar.

Majlis Ziyo shohichining uyida Otabekning meh-mondorchilig‘i uchun yig‘ilg‘an, yuqorida ismlari o‘tkan zotlardan boshqa Homid, Rahmat ham Hasanali bor edilar. Tanishdirishdan so‘ng Otabek bilan qutidorning ko‘zlari birbirlariga tez-tez uchrasha boshladilar. Qutidor nimanidir Otabekdan so‘ramoqqa og‘zini jo‘plab tursa ham Akram hoji bilan Ziyo shohichining allanarsa to‘g‘risidag‘i gaplari keti uzilmay davom etar edi.

I.To‘xtasinov varianti:

Otabek once or twice looked at the two strangers because it was not in his custom to shake hands with strange people.

Ziyo Shohichi, keeping in mind the custom, introduced them to Otabek:

– “Don’t you know these men? They are the closest friends of your father, Mirzakarim *Qutidor*. And this nobleman is a merchant of Andijan – Akram Khoji.”

A man named Mirzakarim was a black-browed, blackeyed, handsome and well-dressed man about forty-five to fifty. Akramkhoji was a man of about fifty five years old. Otabek glanced again at Mirzakarim Qutidor.

– “I am very pleased to meet close friends of my father, thank you”, – Otabek said. He showed favor to Akram Khoji and Mirzakarim Qutidor, and politely

continued, – “My father entrusted me to convey his warm regards to his close friends like you.”

– “Thank you. May God grant him good health!” The party was organized in honor of Otabek. There were other guests, besides those mentioned above – Homid, Rakhmat and Hasanali at the party. After getting acquainted with the guests, Otabek and Qutidor’s eyes met now and then. Though Qutidor was eager to ask Otabek something, Akram Khoji and Ziyoy Shohichi never stopped talking.

K.Ermakova varianti:

Atabek greeted the strangers in Ziya-shakhichi’s home, eyeing them carefully as he did so. Noticing this, his host set about introducing those present: “Are you not acquainted with these gentlemen? This is a close friend of your father, Mirzakarim-Kutidor, and this is the merchant Akram-hadji from Andizhan.”

With his black beard and black eyes, Mirzakarim cut a dashing figure. Lavishly dressed, he looked to be around forty-five to fifty years old. Akram-hadji, on the other hand, seemed about ten years older. Atabek examined Mirzakarim-Kutidor carefully once again.

“I am delighted to meet dear friends of my father, thank you, aka.” And, turning to Akram-hadji and Mirzakarim, he went on respectfully: “My father bade me pass

his warm regards to his close friends, such as yourselves.”

“Thank you, and may Allah bless you!”

As well as these gentlemen, the company who had gathered for the feast in honour of Atabek included Hamid, Rakhmat and Khasanali. The formal introductions over, Atabek and Kutidor often caught each other’s eye. But no sooner did Kutidor open his mouth to ask Atabek something than Akram-hadji and Ziya-shakhichi would strike up some long-winded dialogue.

Mark Riz varianti:

Otabek's eyes passed again and again over the two strangers greeting him — clearly showing wariness about their intentions ... Ziyο Shohichi noticed his apprehension and introduced them to Otabek: "Naturally, you are unacquainted with these gentlemen," he said. "Let me introduce one of your father's closest friends, Mirza Karim Qutidor, as well as Akram Hajji, a merchant from Andijon. Mirza Karim Qutidor appeared to be about forty-five years old, with strong brows and dark eyes; he was well dressed and had a handsome face. Akram Hajji was roughly fifty-five years of age.

Otabek again regarded Mirza Karim. "Thank you for introducing me to my father's closest friend, taksir he said, showing his deference toward Mirza Karim and Akram Hajji.

"My father also entrusted me with paying his compliments to his dearest friend..."

"Thank you, we wish you health and very much appreciate your greetings," they replied.

Ziyο Shohichi's household was hosting the party. Those attending were Hamid, Rahmat, and Hasan Ali, as well as the individuals just introduced — and all were assembled in Otabek's honor. After their introduction, Otabek's and Qutidor's eyes met. Qutidor attempted to ask Otabek something, but Akram Hajji and Ziyο Shohichi continued to ramble, cutting him off.

5-vazifa. Quyidagi matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnda ot so'z turkumi vazifasida qo'llangan so'zlar tarjimasiga, ularning transpozitsiya hodisasiga uchrashiga e'tibor qarating.

Asliyat matni:

Do'konlar yopiq bo'lsalar ham choyxonalar ochiq, kishilar o'rtaga gulxan solib, choyxonachining bachchasini gohi o'zlariga xon ko'tarib va gohi «xon qizi» deb ham qo'yadirlar. Xon saylag'uchilar orasida yosh yigitlar bor

bo'lg'anidek, katta sallalik mullanamolar, yetmish yoshliq keksalar ham ko'rinadirlar... Qish kechalari juda uzun, shuning uchun choyxonalar obod; xalq lazzatlanib bachchaning tabarruklangan choyini ichadir, husniga tamosho qilib xudoning qudratiga hayron qoladilar...

I.To'xtasinov varianti:

The shops were already closed, but tea houses were crowded at this time. In the center of fires, visitors were entertaining with their game *Bachcha* in the tea house sometimes raising somebody as their khan, then sometimes they dubbed him Khan's lady.

Among the "voters" for Khan, there were young people and there were *mullahs* with large turbans on their heads, and the seventy-year aged adult people visiting the tea house. Winter nights were very long, and, therefore, tea houses were always crowded; people relished having tea in the tea houses.

K.Ermakova varianti:

Although the shops were already closed, the chaikhanas were crowded. Fires burned in the teahouses, the customers were enjoying themselves, elevating the chaikhana bacha to the status of khans or suggesting they impersonate the khan's daughter. Revelling in the game choose a khan,' the electoral body' included youngsters, mullahs with sizeable turbans on their heads, old men in their seventies...

Winter evenings drag on, the chaikhanas are always full; relishing the tea prepared by the bacha, the men admire their beauty and give praise to Allah.

M.Riz variant:

Though stores were closed for the day, teahouses hummed at capacity. Men stoked the flames in the central hearths, kindling fires, while others coerced bachas into lascivious roles, posing for the patrons as their very own khans or khans daughter. Among those who favored khans were young mullahnamos, who were scattered among the customers in grandiose turbans, as well as men in their seventies.

Long winter nights make for crowded teahouses.

There were customers seeking pleasure by drinking tea tenderly prepared by bachas, all the while reveling in their beauty and praising Allah I name and omnipotence for creating these delicate chimeras that for just a moment cast aside the ruse to reveal not the face of a woman but that of a young boy.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimada qo'llangan fonetik transformatsiyalarning qo'llanish xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Qaysi morfologik birlik ko'proq transpozitsiya xodisasi uchun keladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

2-AMALIY MASHG‘ULOT:

O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA BADIY TARJIMADA SINTAKTIK MUQOBILLIKNI TAHRIRLASH

Topshiriqlar:

Tayanch tushunchalar: *tarjima, badiiy tarjima, asliyat matn, tarjima matn, sintaktik birlik, sintaktik usullar, inversiya, transpozitsiya, so‘z qo‘shish.*

1-vazifa. *Sintaktik muqobillikning asosiy mazmun-mohiyatini bayon eting.*

2-vazifa. *Badiiy tarjimada qo‘llanadigan sintaktik usullarni tushuntiring.*

Transpozitsiya, sintaktik inversiya, so‘z qo‘shish usullari qo‘llangan gaplarni component tahlil qiling?

Badiiy matn tarjimasidagi sintaktik nomuqobillikning paydo bo‘lish omillari.

3-vazifa. *Badiiy tarjima tahririda sintaktik transformatsiyalar mohiyatini tushuntiring.*

4-vazifa. *Asliyat matn va uning uchta tarjima variantini qiyosiy solishtiring. Asliyat matnida qo‘llangan sintaktik birliklarni tarjima matnidagi muqobillik ifodasini tahrir qiling.*

Asliyat matni:

Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko‘ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan, boshig‘a oq dakanani xom tashlag‘an, o‘ttuz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘riliq ma‘nolari tomib turg‘an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim.

I.To‘xtasinov varianti:

On both sides of the hearth are two women: one of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face - a woman of about thirty-five, dressed in a satin dress, a short quilted padded jacket, her head draped with a white kerchief, a qutidor's wife – Oftoboyim.

K.Ermakova varianti:

Two women are seated either side of the sandal. One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress, a short, quilted, sleeveless felt jacket, with a white scarf thrown over her head. A shapely woman, her small face, open and friendly, radiates devotion to her husband. This is Oftobayim, Kutidor's wife.

M.Riz variant:

On either side of the sandal, a woman reposes. One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe. Over these items hangs a loose white silk scarf. She is about thirty-five, beautiful, and slim. She has a face that personifies kindness as well as modest deference to her husband, without any sign of artifice. She is Qutidors wife—Oftob Oyim.

5-vazifa. Quyidagi matnni o'qing. Asliyat matnida qo'llangan sintaktir birliklarni inversiya, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, transpozitsiyalar, boshqa so'zlar bilan ifodalash, kengaytirish, so'z tarkibini o'zgartirish, antonimik tarjima kabi sintaktik usullarni qo'llanishiga etibor bering.

Asliyat matni:

Qutidorning tashqarisig'a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To'y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko'b, biroq majlisning borishida tartib yo'q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to'lg'an, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o'lturadir, kim yig'lag'an bolasini ovitish

bilan ovora, birav yor-yor o‘qub, tag‘in bittasining quvonchi ichiga sig‘may xaxolab dunyoni buzadi, xullas bag‘-bug‘ yetti qat ko‘kdan oshadir...

I.To‘xtasinov varianti:

The guests in Qutidor’s house were well respected people, treated with first and second courses of many kinds of foods and sweets like *khalva* and *nisholda*. The outside area of the house was full of male guests, and inside of the house was occupied by women and girls. Several musicians outside of the house made the wedding exciting with their musical instruments; *dutor*, tambour, *gijjak*, rubab, tube, bugle and the famous singers sang songs. The wedding was very exhilarating...

Inside the house the women and girls’ party, according to mothers’ view, with so many guests “like sands” filled the area but the party from the beginning was in confusion.

The yard of the house full of women, some of them sat in the yard eating *pilaf* from big dishes, one trying to stop her crying baby, someone reciting a wedding song and others were overwhelmed with the thrilling wedding party, all these made terrible noise.

K.Ermakova varianti:

The male half of the courtyard is full of men, the women’s quarters are packed with women, they are being feted with a vast array of dishes and delicacies, wondrous halva and nishalda. The courtyard rings with music, the continuous melodies of so many folk instruments, bright as the dawn chorus. The town’s best singers caress the guests’ ears, watering this world with the living spring of their songs. The banquet is at its height...

It is no less noisy or festive in the *ichkari*, where the women are feasting. Just as the saying goes: “Today there are as many as there are grains of sand in the desert”. Here, however, chaos reigns. Both the courtyard and the rooms are full to bursting. Some of the women, having ensconced themselves in the courtyard itself, are eating *pilaf*, halva and all manner of other delicacies. Others

are cradling wailing babies, still others are singing the wedding song, raucously calling “yar-yar!” while some, unable to restrain themselves, are laughing at the tops of their voices; in short, the clamour rises almost to the heavens.

M.Riz varianti:

The male guests were celebrating in the male half of the outer courtyard of Qutidors house while the female guests filled the Ich Kari. Honored with a lavish meal of *suyuq osh* and rich halva and fresh nishaldah, all were shown every courtesy.

The constant interplay of instruments resonated from the outer yard; the *dutarsy tamburs*, *rababs*, and *nayss* were accompanied by the most renowned singers of the city; they watered the world around them with the ever-flowing spring of their songs, caressing the ears of the guests.

The wedding brimmed with joyous spirits, reaching a crescendo ... In the Ich Kari, where the women were making merry, a clamor of revelry and a racket commingled: we were to use a mothers witticism we'd say “There are more guests than sand in the desert; therefore, disorder reigns,” Wives crowded all the rooms and the entire Ich Kari. Some were eating cups of plov, halva, and other delicacies right in the yard. Someone else was busy calming crying children, attempting to put them to sleep. Other women were singing a wedding song and yelling “Yor-yor!” at the top of their lungs, while yet others laughed raucously, ruining the tranquility of the world. The tumult reached to the seventh heaven.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimada qo'llanadigan sintaktik transformatsiyalarga qaysi tarjima usullari kiradi?
2. Sintaktik strukturani asliyat va tarjima matnidagi qayta ifodalash xususiyatini tahrir qiling.
3. Qaysi sintaktik usullar badiiy matn tarjimasida faol qo'llanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

3-AMALIY MASHG‘ULOT.

O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA BADIY TARJIMANING LEKSIK-SEMANTIK MOSLASHUVINI TAHRIRLASH

Tayanch tushunchalar: *Tarjima, badiiy tarjima, asliyat matni, tarjima matni, leksik-semantik moslashuv, leksik usullar, so‘z o‘zlashtirish, implikatsiya, eksplikatsiya.*

Topshiriqlar:

1-vazifa. *Badiiy tarjimada leksik-semantik moslashuvning asosiy mazmun-mohiyatini bayon eting.*

2-vazifa. *Badiiy tarjimada asosan qanday leksik-semantik usullar qo‘llanadi?*

3-vazifa. *Quyidagi leksik usullar va ularning asosiy mazmun-mohiyatini bayon qiling: funktsional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, kalkalash, so‘z o‘zlashtirish, tafsillash.*

4-vazifa. *Quyidagi asliyat matn va uning uchta tildagi tarjima variantlarini o‘qing va unda qo‘llangan arxaizmlarni ma’nosini aniqlang. Matnni o‘zbek tilidan ingliz tiliga funktsional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, kalkalash, so‘z o‘zlashtirish, tafsillash transformatsiyalaridan foydalanib tarjima qiling.*

Asliyat matni:

Uy jihozga g‘oyatda boy, go‘yo muzaxona tusini berar edi. Taxmonda turlik rangda atlas va shohilardan qoplang‘an ko‘rpalar, taxmon toqchalarig‘a uyilgan par yostiqlar, qator-qator xitoyi jononlar: kosalar, ko‘zalar, chinni choydoshlar, laganlar, kumush qinlik xanjar va qilichlar, qalqon va siparlar, dorga soling‘an

turlik-turlik er va xotin kiyimlari: po'stin, chakmon va boshqalar, qip-qizil gilam va shohi ko'rpachalar kishi ko'zini qamashdirar darajada edilar.

I.To'xtasinov varianti:

The room they entered was decorated extremely rich and was more like a museum. In niches there were piled silk and satin blankets of various colors, on the shelves there were folded up down pillows, exquisite Chinese dishes stood in rows: patterned cups of fine china, pitchers, teapots, dishes, walls were hung with shield and helmets, daggers and swords in scabbard, decorated with silver. Here on poles hung various men's and women's clothing: light gown, *chakmon* and others. Absolutely red carpets and handmade silk blankets blind everybody's eyes. He glanced at Oftoboyim who was looking forward to hear something from her husband.

K.Ermakova variant:

The room they entered was furnished so lavishly it resembled a museum. Mountains of silk and atlas blankets of all possible hues towered in the niches, dainty Chinese crockery graced the shelves: rows of ornamented fine china cups, jugs, teapots, and dishes nestling amidst a mound of fluffy pillows. The walls were festooned with shields and helmets, daggers and sabres stowed in scabbards wrought in silver. Various garments hung on poles: fur coats for men and women, chekmen overcoats and many more besides. Like woven works of art, the bright red rugs seemed to dance and dazzle the eyes.

Oftobayim waited impatiently to hear what her husband had to say.

M.Riz varianti:

The room, lavishly decorated, was fit for a museum. There was an array of richly colored silks and atlas-covered blankets stored in recessed shelves along with piles of feather pillows; there were rows of fine Chinese tableware, ornate cups of delicate porcelain, as well as teapots, plates, and pitchers; and the walls were covered with swords, shields, helmets, daggers, and sabers in silver filigreed sheaths. An assortment of men and women's clothing, draped or folded, lined the

walls; there were *chokmon* coats and travel robes as well as vibrant red carpets and silk blankets. One's eyes were dazzled by the display of wealth.

Qutidor smiled at Oftob Oyim, who waited eagerly for his words.

5-vazifa. Quyidagi matnni o'qing va uning tarjima matndagi leksik birliklarning o'zaro muvofiqligini aniqlang.

Asliyat matni:

Nihoyat, soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o'ttiz chog'liq yosh yigitlar — Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek — kuyav ko'rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'...

I.To'xtasinov variant:

At last, at about half past five, Atabek the bridegroom appeared, accompanied by about twenty or thirty young men, friends of Rakhmat. He was dressed magnificently: a shimmering silk turban on his head, a marten fur coat lined with black woollen cloth on his shoulders, with a blue woollen camisole underneath, tailored in Shamay to his own design. He also wore woollen trousers. His feet were shod in city boots, and around his waist was a gift, a silk cummerbund skilfully embroidered by Kumush...

K.Ermakova variant:

At last, at about half past five, Atabek the bridegroom appeared, accompanied by about twenty or thirty young men, friends of Rakhmat. He was dressed magnificently: a shimmering silk turban on his head, a marten fur coat lined with black woollen cloth on his shoulders, with a blue woollen camisole underneath, tailored in Shamay to his own design. He also wore woollen trousers. His feet were shod in city boots, and around his waist was a gift, a silk cummerbund skilfully embroidered by Kumush...

M.Riz varianti:

At last, the groom came at five thirty with about twenty or thirty young men – Rahmat’s friends, among them the groom – Otabek with a silver silk turban on his head, black fur coat, his own light blue vest which he had sewn in Shama, broadcloth pants, leather shoes; he had on his abdomen a wide silk belt (kerchief) which had been embroidered and sewn by Kumush herself...

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimada uchraydigan leksik-semantik g'alizliklarning paydo bo'lish omillarini aniqlang.
2. Leksik-semantik transformatsiya va ularning kategoriyalarini tavsiflang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

4-AMALIY MASHG‘ULOT.

BADIIY TASVIRIY VOSITALARNI TARJIMADA QAYTA IFODALANISHINI TAHRIR QILISH

Tayanch tushunchalar: *Tarjima, uslubiyat, stilistik usullar, asliyat matni, tarjima matni, metafora, metonimiya, kinoya, personifikatsiya.*

Topshiriqlar:

1-vazifa. *Badiiy matnda qo‘llangan stilistik vositalarni tahlil qiling.*

2-vazifa. *Badiiy tarjimada qo‘llanadigan stilistik vositalarni tarjima strategiyalarini aniqlang.*

3-vazifa. *Metafora, kinoya, allyuziya kabi stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalarini tahlil qiling.*

4-vazifa. Quyidagi matnni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasini tahlil qiling. Matndagi metafora ishtirok etgan gaplarni quyidagi metaforani tarjima qilish strategiyalardan foydalanib tarjima qilinganligiga e’tibor qarating:

- a) metaforani xuddi shunday metaforaga aylantirish;
- b) tarjima jarayonida asliyat tilidagi ifodani tarjima tili madaniyatiga mos standart ifoda bilan almashtirish;
- v) matn mazmunidan foydalangan holda xuddi shunday metafora yaratish;
- g) metafora ma’nosini tarjima tilida aks ettirish.

Asliyat matni:

– Bu qanaqa maktub, taniysizmi?

Otabek ko‘rguchi ko‘zlariga ishonmag‘andek:

– Taniyman, –dedi, –ta’rifini sizga so‘zlag‘anim, otam maktubi! Taajjub, buni sizga kim keltirdi, taqsir?

Qushbegi yengilgina iljayib Kumushbibiga ishorat qildi:

– Najot farishtasi, – dedi. Qutidor bilan bek yalt etib Kumushka qaradilar.

Endi Kumush ortiq chidab turolmadi:

– Otajon, men qizingiz!

Otabekning qulog'ig'a eshitilgan bu tovush uning yuragini ingichka yeriga borib tekkan edi. Esini yo'qotib turg'an qayin otasig'a qaramay:

– Sizmi, Kumushmi? – deb so'radi.

– Men, men!

I.To'xtasinov variant:

– “Can you recognize this letter? Do you know it?” – Otabek stared at this letter with uncertainty and said:

– “I know this letter, it is the very letter which I've mentioned above and received it from my father. It is very astonishing, where did you get it?”

Qushbegi made a gesture to Kumush:

– “The Angel”, – he said. Qutidor and Otabek immediately looked at Kumush. Now Kumush couldn't keep her patience anymore and cried:

– “Father, it is me, your daughter!” The voice he had heard touched his heart deeply. And not paying attention to his unconscious father-in law, Otabek asked:

– “Is it you, Kumush?!”

– “Yes, yes, it is me!”

K.Ermakova variant:

“Take a look. Do you recognise this letter?”

Atabek could not believe his eyes.

“I do!” he exclaimed. “It is the very letter of which I spoke, the letter from my father.

Amazing! Who brought it to you, taksyr?”

A suspicion of a smile flickered over Qushbegi's lips as he pointed to Kumush.

“Here is your guardian angel!”

Qutidor and Atabek swiftly looked in her direction.

And Kumush could hold back no longer.

“Father, my dear father! It is I, your daughter!”

When the sweet melody of these words reached Atabek’s ears, they tugged at his very heartstrings. Paying no heed to his father-in-law, who was now utterly at a loss, Atabek called out:

“Is it truly you, Kumush?”

“Yes, it is I, it is I !”

M.Riz varianti:

- Do you recognize this letter? Do you know its contents?"

Otabek looked at it in disbelief. "I recognize it," he said. "This is the very letter from my father that I just told you about! Incredible! Who brought you this letter, Your Honor?"

With a wry smile, Qushbegi pointed toward Kumush.

"A guardian angel," he said. Both Qutidor and Otabek looked quickly at Kumush, who now could not restrain herself.

"Father, it is me, your daughter."

Her familiar voice, reaching Otabek's ears, touched a tender spot in his heart.

Not looking at his father-in-law, losing his composure, he asked, "Is it you, Kumush?"

It is. It is."

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjimada qanday tarjima strategiyalari faol qo'llanadi?
2. Metaforani tarjima qilish strageiyalari qanday?
3. Metonimiyani tarjima qilish usullar nimalardan iborat?
4. Stilistik vositalarda milliy-madaniy ma'noni tarjimaga qanday olib o'tiladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.

3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

5-AMALIY MASHG'ULOT.

BADIY TARJIMADA EKSTRALINGVISTIK XUSUSIYATLAR IFODASINI TAHRIR QILISH

Tayanch tushunchalar: *Tarjima, lison, nolisoniy omillar, stilistik usullar, aslyat matni, tarjima matni, lingvokulturologiya, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, olam milliy manzarasi.*

Topshiriqlar:

1-vazifa. *Badiiy matndagi ekstralingvistik xususiyatlar nimadan iborat ekanligini tavsiflang.*

2-vazifa. *Badiiy tarjimada lingvokulturologik xususiyatlarni qayta ifodalashda qanday tarjima usullari qo'llanishini tahlil qiling.*

3-vazifa. *Metafora, kinoya, allyuziya kabi stilistik vositalarni milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qiling.*

4-vazifa. Quyidagi badiiy matn va uning ingliz tiliga qilingan uch xil tarjima variantlarida milliy-madaniy birlik va ular anglatgan ma'noni asq etish jihatlarini tahrir qiling.

Asliyat matni:

Shu chorxari ayvonning o'rtasida, ustiga atlas ko'rpalar yopilgan tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi o'turadir. Bu kishi bilan ikkinchi martaba tanishib o'turmaymiz, chunki, bu odam o'qug'uchi bilan tanishqan — Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim, ikkinchisi yetmishlardan o'tkan bir kampir. Oftob oyimning onasi — Oysha bibi.

I.To'xtasinov varianti:

In the center of veranda, at the end of the covered satin coverlet of sandalwood, leaning against the wall, a man sitting on a wearing marten fur, lined with black cloth. We will not again present him to the reader, he is already familiar – he is Mirzakarim-Qutidor. On both sides of the hearth are two women: one of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face - a woman of about thirty-five, dressed in a satin dress, a short quilted padded jacket, her head draped with a white kerchief, a qutidor's wife – Oftoboyim. The second one – an old woman of about seventy years was named Oyishabibi, her mother.

K.Ermakova varianti:

In the middle of the ayvan, seated at the end of the sandal festooned with atlas covers, a man clad in a marten fur coat lined with black felt is leaning back

against the wall. We shall not repeat our introductions for the reader already knows him - this is Mirzakarim-Kutidor. Two women are seated either side of the sandal. One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress, a short, quilted, sleeveless felt jacket, with a white scarf thrown over her head. A shapely woman, her small face, open and friendly, radiates devotion to her husband. This is Oftobayim, Kutidor's wife. The second woman is an old lady of around seventy, her mother, Aisha-bibi.

M.Riz varianti:

In the middle of the pillared veranda sits a man on a raised platform in the place of honor facing the door, wearing an otter jacket lined with black velvet. He sits before a sandal covered with multicolored atlas blankets. A second introduction for this person is unnecessary, because this man is already familiar to the reader as Mirza Karim Qutidor. On either side of the sandal, a woman reposes. One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe. Over these items hangs a loose white silk scarf. She is about thirty-five, beautiful, and slim. She has a face that personifies kindness as well as modest deference to her husband, without any sign of artifice. She is Qutidor's wife—Oftob Oyim. As for the second woman, she is an elderly lady of about seventy years, the mother of Oftob Oyim—Oysha Bibi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Badiiy tarjima ifodalanga milliy-madaniy konnotatsiya qanday aniqlanadi?
2. Milliy madaniy leksik birliklarni tarjima qilish usullari qanday?
3. Olam milliy manzarasini badiiy tarjimada qayta ifodalash xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Kommunikativ funksiyani badiiy tarjimada qayta yaratish usullari qanday tahrir qilinadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

8. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.

9. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
10. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
11. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
12. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
13. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
14. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

V. KEYSLAR BANKI



V. KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul boʻyicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi
1-keys. Badiiy tarjima tahririning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini qayta ifodalashda qoʻllangan tarjima usullarini kategoriyalashtiring.


2-keys. Badiiy tarjimada qoʻllanadigan tarjima uslub va usullarining oʻzaro farqini yoritib bering.

3-keys. Badiiy tarjimada sintaktik nomuvofiqlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillarni nimalardan iborat?

4-keys. Badiiy tarjima matnini tahrir qilishda qoʻllanadigan asosiy metodlar qaysilar?

5-keys. Badiiy tarjimada fonetik transformatsiyalarni qoʻllanishning asosiy omillari nimalardan iborat?

VI. GLOSSARIY



VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Tarjimon	Bir tilda yaratilga so'z, gap, matn va hokozolarni boshqa tilga tushunarli qilib olib o'tuvchi shaxs, vositachi	A person, a mediator, who transfers words, sentences, texts to another language in an accessible way.
Tarjima	Biror axborotni asliyat va tarjima tillarining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini hisobga olib, boshqa ifodalash jarayoni.	Another process of expression, taking into account the linguistic and extralinguistic features of the languages of origin and translation of information.
Asliyat matn	tarjima qilinishi kerak bo'lgan matn	text that needs to be translated
Tarjima matn	Boshqa tilga tarjima qilingan matn	text needs to be translated into another language
Tarjima uslubi	Asliyat matnning uslub jihatidan turiga ko'ra tanlanadi va tarjimon yondashuvini belgilab beradi	The original is selected according to the type of text in terms of style and determines the approach of the translator
Tarjima usuli	Asliyat matnidagi kichik leksik birliklarni tarjima qilish uchun qo'llanadi	Applied for the translation of small lexical units in the text of the original
Tarjima strategiyasi	Tarjima uslub va usulni tanlashni o'z ichiga oladi	Translation involves the choice of style and method
Kommunikativ kompetentsiya	individning umumiy kompetentsiyasi unsurlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va individ uchun nutq faoliyatini	it can be defined as a complex of linguistic, sociolinguistic and pragmatic competencies that are interconnected

	muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar kompleksi sifatida belgilanishi mumkin	with the elements of the general competence of an individual and allow the successful implementation of speech activities for an individual
So'z o'zlashtirish	tarjima jarayonida bir so'zni bir tildan boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri olib o'tish	direct transfer of a word from one language to another in the process of translation
Kalkalash	xorijiy til so'zi yoki iborasi boshqa tilga tarjima qilinadi va shu til tarkibiga kirib ketadi. Asliyat tilidagi leksik birlikning o'ziga xos bo'lgan belgilaridan foydalanib tarjima tilida ekvivalent so'z yaratish uchun so'zma-so'z tarjima qilinadi.	the word or phrase of a foreign language is translated into another language and goes into the composition of the same language. It is translated literally to create an equivalent word in a translation language using the characteristic signs of the lexical unit in the original language.
Gaplarni birma-bir tarjima qilish	so'zlar, gaplar so'zma-so'z tarjima qilinadi, grammatik struktura tarjima tiliga moslashtiriladi	words, sentences are translated literally, the grammatical structure is adapted to the language of translation
Transpozitsiya	so'z turkumining o'zgarishi, ya'ni fe'l otga, ot predlogga o'zgarishi	word group change, i.e. verb change, noun to preposition change
Modulyatsiya	tushunish nuqtai nazaridan leksik birlikning o'zgarishi	change of the lexical unit from the point of view of understanding
Ekvivalentlik	bunda xuddi shunday vaziyat uchun butunlay	this uses a completely different alternative


	boshqa muqobil ibora ishlatiladi, ya'ni maqollar yoki idiomatik ifoda vositalari bularga misol bo'la oladi.	phrase for a similar situation, that is, Proverbs or idiomatic means of expression are examples of this.
Madaniy ekvivalentlik	tarjimon asliyat tilidagi madaniy so'zni tarjima tilidagi madaniy so'z bilan almashtiradi	the translator replaces the cultural word in the original language with the cultural word in the translation language
Tasviriy ekvivalentlik	leksik birlikni bildiruvchi so'zning ma'nosi bir necha so'zlarda tushuntirilshi	the meaning of a word denoting a lexical unit is explained in a few words
Funksional ekvivalentlik	tarjima tili leksikasida so'z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so'z bilan almashtirilishi	in the lexicon of the translation language, the word is replaced by a word corresponding to the style of the text, which performs the same function in the lexicon of the original language
Moslashtirish	Bu usulda, odatda, biror termin maxsus auditoriya yoki tarjimonning maxsus maqsadi uchun ko'proq mos keladigan matn yaratish uchun kerak bo'ladigan o'zgarishlar amalga oshiriladi.	In this method, changes are usually made that a term needs to create a text that is more suitable for the specific purpose of a specific audience or translator.
Kompensatsiya	Asliyat matnidagi ma'lumotning biror leksik birligi yoki stilistik ta'siri tarjima matnida aynan o'z joyida emas, balki matnning yana boshqa bir joyida qayta yaratiladi	One lexical unit or stylistic effect of information in the text of the original is recreated in the text of the translation not exactly in its place, but in another place in the text
Kengaytirish	tarjima tilida sintaktik va	using concepts with more

	leksik bo'shliqlarni yo'qotish uchun ko'proq ma'noga ega tushunchalardan foydalanish	meaning to eliminate syntactic and lexical spaces in the translation language
Ma'noni ochib berish	Asliytdagi leksik birlik tarjima matnida to'liqroq sharh yoki aniqlashtiruvchi ma'noli so'z birikmasi bilan almashtiriladi	The lexical unit in Origin is replaced in the translation text by a more complete interpretation or a word combination with a clarifying meaning
Kuchaytirish	tarjima tilida sintaktik va leksik bo'shliqlarni yo'qotish uchun ko'proq ma'noga ega tushunchalardan foydalanishdir	is the use of concepts with more meaning to eliminate syntactic and lexical spaces in the language of translation
Transliteratsiya	asliyat tilidagi so'z uning grafik shakliga ko'ra tarjima tilida qayta yaratiladi	the word in the original language is recreated in the translation language according to its graphic form
Funksional ekvivalentlik	tarjima tili leksikasida so'z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so'z bilan almashtiriladi	the word is replaced by a word corresponding to the style of the text, which performs the same function in the lexicon of the original language in the lexicon of the translation language
Antonimik (teskari) tarjima	asliytdagi tasdiq shaklidagi fikr tarjima tilida inkor shaklda yoki aksincha berilishini ifodalaydi	an opinion in the form of confirmation in the original expresses the fact that in the language of translation the negation is given in form or vice versa
mualliflashtirilgan	original asar yoki matn	the original work or text

tarjima	muallifning qisman ishtiroki, tahriri asosida amalga oshirilgan tarjima	is a translation made on the basis of the author's partial participation
Bilvosita tarjima	Bunda asliyatdan qilingan tarjimadan amalga oshirilgan tarjima yoki uchinchi tildan amalga oshirilgan tarjima nazarda tutiladi.	This refers to the translation made from the original or the translation made from the third language.
Diktant-tarjima	chet til darslarida asliyatdagi matn sekinlashtirilgan tarzda o'qituvchi tomonidan talabalarga <i>og'zaki</i> o'qib berilishi bilan <i>yoзма</i> tarjima qilishga asoslangan mashq. O'qib berilgan matnni yozuv mashinkasida tarjima qilib yozish yoki kompyutorga kiritish tarjima amaliyotida uchraydi.	in foreign language lessons, the text of the original is an exercise based on written translation by the teacher with oral reading to students in a slowed manner. Read text on a typewriter writing in translation or inserting into a computer occurs in translation practice.
Fonematik tarjima	matnning fonematik xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan tarjima.	translation focused to the phonemic properties of the text
Frazeologik tarjima	asliyatdagi birlikmani tarjima tilida qam frazeologik birlik orqali ifodalash, asliyatdagi frazeologizmlar tarjimasiga asosiy urg'u berilgan tarjima. Frazeologizmlar tarjimasida asosan quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi: 1) mos ekvivalent (to'la yoki qisman) bilan o'girish; 2) muqobil variant bilan	the expression of the compound in origin in the translation language through the phraseological unit qam is the translation with the main emphasis on the translation of phraseologisms in the original. Translation of phraseologisms is mainly processed by the following methods: 1)

	berish: 3) so'zma-so'z tarjima qilish; 4) tarjima tilida tushuntirish yoki izohlab berish.	conversion with a suitable equivalent (full or partial); 2) giving with an alternative option: 3) literal translation; 4) explanation or interpretation in the translation language.
Idiomatik tarjima.	Tarjima tili imkoniyatlaridan kelib chiqib asliyatdagi matnni tarjima qilish strategiyalaridan biri. Muayyan ijtimoiy-madaniy jabhada tilni amalda qo'llash va me'yorlarga tayanish bilan idiomatik tarjimadan foydalanish tarjima jarayonida amalga oshiriladi. Bu esa o'z o'rnida tarjima o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini ham inobatga olinadi.	One of the strategies for translating the original text based on the capabilities of the target language. Specific socio-cultural In the translation process, the use of idiomatic translation, relying on the norms and practical application of the language at the front. This takes into account the interests and needs of our readers.
Informatsion tarjima	asliyatdagi matnning faqat adresatgagina mo'ljallangan qismini o'z ichiga olgan tarjima.	a translation containing the part of the original text intended only for the addressee.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажакки фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион

- ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сонли Фармони.
 13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июнь “2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4358-сонли Қарори.
 14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.
 15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони.
 16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
 17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.
 18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 29 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чора-

тадбирлари тўғрисида” ги 40-сонли Қарори.

III. Maxsus adabiyotlar

19. Galperin I.R. Stylistics. –М.: Высшая школа, 1981. – P.187.
20. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Т.: Fan, 2005. – 352 b.
21. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
22. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
23. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
24. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
25. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.
26. Александрова Е.М. Перевод анекдота: проблемы адекватности и эквивалентности: на материале французских и русских анекдотов. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 25 с.
27. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.
28. М.Холбеков. “Мустақиллик йилларида ўзбек таржима амалиёти”. Тил, Маданият, Таржима ва Мулоқот республика илмий-амалиё конференцияси материаллари. Самарқанд, 2016. 11-22-бетлар.
29. Нелюбин Н.Н. Толковый переводоведческий словарь. – М.: Наука, 2003. – С.110.
30. Сирожиддинов Ш. Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – Б.39.

31. Тешабоева З.Қ. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Фил. фан. фал. док. дисс. автореф.–Т.: 2017. 44 б.

IV. Elektron ta'lim resurslari

32. <http://edu.uz>.
33. <http://lex.uz>
34. <http://ziyonet.uz>
35. <http://natlib.uz>
36. <http://journalpro.ru/articles/effective-methods-of-teaching-literature>
37. <https://natureofwriting.com/courses/writing-about-literature/lessons/methodology>
38. https://www.journals.uchicago.edu/doi/abs/10.1086/442705?journalCode=sc_hoolreview

VIII. TAQRIZLAR



Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi prof. B.Karimov tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar” nomli fan dasturi va o‘quv-uslubiy majmuaga

T A Q R I Z

“Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar” moduli uchun tuzilgan o‘quv-uslubiy majmua tinglovchilarga jahon adabiyotshunosligida mavjud metodlari to‘g‘risida bilim berishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bu majmuada dunyo adabiyotshunosligida mavjud metodlar tasnifi va tavsifini amalga oshirish, adabiyotshunoslik metodlari ko‘lami bo‘yicha ma‘lumotlar berish, jahon adabiyotshunosligidan o‘zbek adabiyotshunosligiga kirib kelgan metodlar mohiyatini o‘rganiish, ijodkor shaxsiga qaratilgan metodlar masalasini muhokama qilish, adabiy kontekstga qaratilgan metodlar mazmun-mohiyatini talqin etish, badiiy asarning shakli qirralarini o‘rganadigan metodlarga xos tamoyillarni tushuntirish kabi jada ko‘p masalalar qamrab olingan. Tinglovchilar ayni metodlarni o‘rgangandan keyin, amaliy mashg‘ulotlarda ularni qo‘llay olish jihatiga ham diqqat qaratilgan. O‘zbek adabiyotshunosligiga dunyo adabiyotshunosligidan kirib kelgan metodlar qiyosi hamda adabiyotshunoslik metodlarining keng ko‘lamga ega ekani yuzasidan beriladigan bilimlar ham ahamiyatga ega, albatta.

O‘quv-uslubiy majmua “Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar” moduliga oid asosiy masalalarning mohiyatini yoritishga yordam beradi.

Umuman olganda B.Karimov tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar” nomli fan dasturi, o‘quv-uslubiy majmua mavjud o‘quv-uslubiy talablarga to‘liq javob beradi, uni bemalol nashrga tavsiya etish mumkin.

Z.Abdirashidov



filologiya fanlari doktori

**TOSHDO‘TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARAZIDA
O‘QITILADIGAN “O‘ZBEK TILI FILOLOGIYASI: O‘ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGI” YO‘NALISHI KURSI O‘QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

Mazkur yo‘nalish o‘z maqsad va vazifalriga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko‘rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo‘ladi. Fanlararo integratsiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish va bili olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo‘llash – bu davr talabi sanaladi. “Jahon adabiy ta‘limining yetakchi konsepsiyalari”, “Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar”, “Oliy ta‘limda mumtoz she‘r tuzilishini o‘qitish muammolari”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Folklor va yozma adabiy aloqalar”, “O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” kabi modullarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta‘kidlash zarur.

Dasturda har bir fanni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun, tinglovchilar malakasini oshirish maqsadida rasmiy hujjatlar, jumladan, o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar, malaka talablari hamda kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Zero, o‘zbek adabiyotshunoslarining darajalarini dunyo ilm-fani olimlari, muallimlari darajasiga ko‘tarish uchun dunyo adabiyotshunosligidagi ilg‘or adabiy-nazariy metodlar tamoyillari, badiiy asarlarning shakliy jihatlariga doir muammolari, jadid adabiyotining dunyo adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganilishi, dunyo ilm-fan markazlarida o‘zbek adabiyoti muammolari tadqiqotlari, o‘zbek yozma dabiyoti bilan xalq og‘zaki ijodi bilan aloqalarini tinglovchilar e‘tiboriga havola etish o‘zining yaxshi samaralarini berishi tabiiy.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan. Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilarning ilmiy-

pedagogik faoliyatini inobatga olinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish malakasiga, ayniqsa, talabalar bilan ustozlarning o'zaro muomala madaniyatiga e'tibor berish kabi masalalarning ushbu o'quv dastur tuzuvchi professor-o'qituvchilari diqqatini o'ziga jalb etgani katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori



S.Normamatov



T.C.
 ISTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ
 Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

Avvalo shuni atohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tganiga qaramay, ilmiy, pedagogik yo'nalishda katta yutuq va natijalarga erishmoqda. Binobarin, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining aynan shu nufuzli universitet qoshida ochilgani ayni muddao bo'lgan.

"O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishidagi o'quv dasturining mazmun-mundariyasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Kursning maqsad va vazifalari tadrjiiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi – pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompetatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilish kabilarning o'rin olgani ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda. 1-modulning "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish" deb nomlangan 1.1-qismida kredit tizimi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, ayniqsa onlayn darslarni tashkil etish va o'tqazishda pedagog e'tibor qaratishi muhim bo'lgan jihatlar aks etgan.

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" bo'limida esa pedagogning ilmiy, pedagogik salohiyatini jahon standartlariga chiqarish yo'lidagi zarur tavsiya, ko'rsatmalar belgilab berilgan.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish"ga qaratilgan bo'lib, bu, ta'bir joiz bo'lsa, 1-modulning mantiqiy davomi va yakunlovchi bosqichidir. Ushbu modulda tinglovchi-pedagog o'zlashtirishi ko'zda tutilgan multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini tayyorlash, ulardan ta'lim jarayonida samaraliy foydalanish, QR – kod va undan foydalanish, shuningdek, sohaga tegishli ingliz tilidagi maqolalarni o'qib, tushunish ko'nikmasi kabilarning qamrab olingani mutaxassis kadrlarning o'z yo'nalishlari bo'yicha yanada tajribali bo'lishlariga qaratilgan. "Mutaxassislik fanlari" deb nomlangan 3-modul 6 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ushbu modulda folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyotning samarali o'qitilishiga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy va pedagogik yo'llanmalar ifoda etilgan. "Adabiyotshunoslik metodlari va tamoyillari", "Folklor va yozma adabiy aloqalar", "O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" bo'limlaridagi talab va ko'nikmalarni o'zlashtirgan pedagog-tinglovchi ta'lim jarayonida jiddiy yutuq va natijalarga erishmog'i shubhasizdir.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rin olgan. O'quv dasturini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarning asarlari, shuningdek, sohaga oid 8 internet saytlaridan foydalanilgani ham mazkur dasturning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori